

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Xudoyberdiyeva Iroda Abduhamidovna

**«Geografiya ta`limida innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning
metodik asoslari»**

5A110501-Geografiya o`qitish metodikasi

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar: g.f.n. dots. Raxmatov Yu. B.

Navoiy- 2015

MUNDARIJA.

Kirish

I BOB. Geografiya fanini o`qitishda axborot texnologiyalardan foydalanishning georarafik asoslari.

- 1.1. Ta`lim sifatini ta`minlashda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari**
- 1.2. Axborot texnologiyalarini ta`lim jarayoida qo`llashning pedagogik omillari.**
- 1.3 O`quv-tarbiya jarayonining axborot texnologiyalarini loyhalash.**

II BOB. O`quv jarayonini tashkil etishda axborot texnologiyalarini joriy etishning metodik asoslari.

- 2.1. Geografiya darslarida axborot texnologiyalarini tutgan o`rni.**
- 2.2. Geografiya fanini o`qitishda zamonaviy texnologiyalar.**

III.BOB. Geografiya fanidan ta`lim jarayoiga electron o`quv vositalarini joriy etish.

- 3.1. Geografiya fanidan electron o`quv metodik majmualar va ularni yaratishga bo`lgan talablar.**
- 3.2 Geografiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo`yicha metodik tavsiyalar.**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagi IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun [6] va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da [7] oliy ta'lim oldiga qo'yilgan qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida modul tizimidan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Yuqori malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol yosh avlodni asrlar davomida shakllanib kelayotgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega bolgan, fanning fundamental asoslarini puxta egallagan, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy metodlari bilan chuqur qurollangan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirib olgan ijodkor pedagog kadrlarni shakllantirish talab etiladi.

Bunday vazifalarni bajarish mavjud ta'lim tizimini mukammallashtirishni, uni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni, xususan oliy pedagogik ta'lim paradigmasini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fundamental bilimlarni mustahkam egallashga qodir pedagoglar tayyorlashga yo'naltirishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchi o'zining faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid axborotlarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahorati oqibatidagina ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida tashkil eta olishi mumkinligi sir emas.

Ta'lim tizimi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi.

O`qituvchining chuqur bilim va samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo`lishi ma'lum fan asoslari borasida unda etarli nazariy va amaliy bilimlarning, ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining nechog`lik shakllanganiga bog`liqdir. Shunga ko`ra, ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o`zlashtirish va undan unumli foydalanishning metodik hamda amaliy asoslarini yaratish tadqiqotimizning asosini belgilaydi.

Oliy pedagogik ta'lim tizimida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» [7]dan kelib chiqadigan vazifalar, fan, texnika va texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi bilan bo`lajak o`qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini takomillashtirish jarayoni orasidagi mavjud nomuvofiqlikni bartaraf etish, zamonaviy axborot texnologiyalarining amaliyotga etarli joriy etilmaganligi sababli yanada yuqori dolzarblik kasb etmoqda.

Fan taraqqiyotining eng so`nggi natijalari bilan talabalarni xabardor qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fan va texnika yangiliklarini o`quv dasturlari mazmuniga tez kiritilishini ta'minlash talabalaridagi zamonaviy bilim hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga zamin yaratadi. Bundan tashqari zamonaviy o`qitish texnologiyalari va ular bilan bog`liq metodik yondashuvlar bo`lajak o`qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar va ko`plab fundamental tushunchalarni nisbatan engil va mustahkam shakllanishi uchun yaxshi sharoit yaratadi.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko`plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan fan va texnikaning yangi bo`limlari va sohalarining shakllanishi bilan uning differentsiyasini ta'minlayotgan bo`lsa, ikkinchi tomondan fanlar orasida hukmron bo`lgan chegaralarni buzib, integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Ta'lim yo`nalishlari «boshidan kechirayotgan» bunday differentsiyalashish va integratsiya jarayonlari, o`qitishda o`z aksini topa olmayotgani ham bugungi ta'lim tizimida ma'lum muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, ta'lim mazmuni va

to'plangan boy ilmiy axborotlarning unda aks etishi orasida uzilish vujudga kelmoqda.

Oliy ta'limda bunday uzilishni ayrim maxsus kurslarni o'qish orqali bartaraf qilishga harakat qilinmoqda. Biroq, ta'limning quyi bosqichlarida (maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari) bu «bo'shliq» o'quv dasturlarini «kosmetik ta'mirlash», alohida mavzular bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyanomalar ishlab chiqish, ayrim hollarda mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayanish orqali to'ldirishga urinishni ko'rish mumkin. Shunda ham ularning epizodik xarakter kasb etishini, samaradorlik darajasining esa yuqori emasligini qayt etishga to'g'ri keladi. O'quv materiallarini bayon etishning bu usul orqali takomillashtirilishi o'qitishning ensiklopedik xarakterdagi tamoyiliga asoslangan. O'qitishni bunday tamoyil asosida amalga oshirishda ilmiy axborotlarning keskin ortib borishi natijasida ma'lum qiyinchiliklar vujudga keldi. Boshqacha aytganda, ilmiy va ilmiy-texnik ma'lumotlarning ortib borishi va to'planishi jarayonida o'qitishni takomillashtirish bo'yicha ko'zlangan maqsadlarga erishish juda mushkul bo'ladi.

hozirgi vaqtda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global yo'nalishi hisoblanadi.

Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu sababdan o'qitish jarayonini tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'llari hisoblanadi.

Muammoni o'rganilish darajasi. Axborot texnologiyalarining dasturiy vositalarini o'quv jarayoniga qo'llash buyicha mavjud ilmiy nashirlarni taxlili shuni ko'rsadiki, unga jahon miqyosidagi yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qish bilan bog'liq sifatida e'tibor berilgan va bu boradagi sezilarli natijalarga erishilgan.

Masalan, A. Sa'diev va J. Rahimovlar o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish [54,]; Rafiqov V. Qiziqarli geografiyadan foydalanish [18]; Saotov A., Abduqosimov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi T., «O'qituvchi», 2005 yil. [17]; Abdug'aniev I. Geografiya darslarda ta'limning texnika vositalaridan foydalanish T., «O'qituvchi», 2005 yil. [6]; Qayumov A. va boshqalar Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi T., «O'zbekiston», 2006 yil. [21]; Musaev R. va Musaev J.O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi T., «Sharq», 2006 yil. [16] orqali geografiya darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish masalasining ba'zi jihatlarini bayon etishgan.

Respublikamiz olimlari U.Sh.Begimkulov, R.Bokiev, M.M. Aripov va boshqalar o'z ishlarida ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarni joriy etish, istiqboli hamda rivojlanish bosqichlari va uning o'quv materiallarini yaratish masalalariga to'xtalishgan. Biroq geografiya darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish masalasi bo'yicha aniq ilmiy tadqiqot o'tkazilmagan.

Tadqiqot ob'ekti:

Tabiiy fanlarga ixtisoslashgan umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariida geografiya fanlarini o'qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti:

Geografiya darslarida axborot texnologiyalarni joriy etish.

Tadqiqotning maqsadi:

Geografiya darslarida axborot texnologiyalardan foydalanishning asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- Umumta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'limi va kasb-hunar kollejlari tizimida geografiya fanini o'qitishning dolzarb muamolarini taxlil qilish;
- O'quvchilarda geografik bilimlarini shakllantirishda axborot texnologiyalarining tutgan o'rnini aniqlash;
- Geografiya darslarda axborot texnologiyalarini joriy etishning metodik asoslari yoritib berish;

- Axborot va pedagogik texnologiyalar asosida geografiya fanidan multimedialli elektron darsliklar (MED) yaratish muamolarini ochib berish;

- Geografiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga doir tajriba sinov ishlarni natijalari taxlil qilish.

Tadqiqot metodlari:

- DTS, o`quv dasturi va darsliklarni o`rganish, pedagogik jarayoni kuzatish, suhbat, ijodiy test, so`rovnomalar o`tkazish;

- Kompyuter va axborot texnologiyalari nazariyasi buyicha xorij va respublikamizda nashr qilingan pedagogika, sotsiologiya, informatsiya sohasidagi adabiyotlar, internet saytlar hamda bu sohadagi tajribalarning taxlili, so`rov savollari, suhbat, pedagogik tajriba, ma'lumotlarga matematik ishlov berish;

Tajriba ishlarining borishi natijalarini tavsiyanomalar, ishlanmalar yoritish.

Tadqiqotning metodologik asoslari:

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” geografiya fanini o`rganish kontsepsiyasi, geografiya fani davlat ta’lim standarti, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va ma’ruzalarida ta’limni isloh qilish to`g`risidagi yondashuvlar, ta’lim jarayonini takomilashtirishga yo`naltirilgan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlari, mavzuga oid ilmiy-nazariy, falsafiy, psixologik, pedagogik manbalar.

Ishning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I – Bob. Geografiya fanini o`qitishda axborot texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.

Ta'lim sifatini ta'minlashda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari.

O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da [7] oliy ta'lim tizimi oldiga qator muhim vazifalar qo`yilgan. Jumladan, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish va o`zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o`qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotining bugungi darajasi bilan bo`lajak o`qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni orasidagi mavjud nomuvofiqlikni bartaraf etish zarurati oliy pedagogik ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining etarli joriy etilmaganligi sababli yanada yuqori dolzarblik kasb etmoqda.

Fan va texnikaning mavjud yangiliklari ularni o`quv dasturlari va darsliklari mazmuniga jadal kiritishni talab etadi va bu orqali talabalarning zamonaviy bilimlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Zamonaviy o`qitish texnologiyalarining joriy etilishi va turli metodik yondashuvlar esa, o`z navbatida, talabalarda ko`plab fundamental tushunchalarni nisbatan engil va mustahkam shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko`plab ilmiy bilimlar, tushuncha, tasavvurlar va axborotlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan fan va texnikaning yangi bo`limlari va sohalarining shakllanishini ta'minlayotgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida hukmron bo`lgan chegaralarni buzib, integratsiya jarayonini jadallashtirishni talab etadi.

Ta'lim yo`nalishlari «boshidan kechirayotgan» bunday differentsiyalashish va integratsiya jarayonlarining o`qitishda o`z aksini etarli darajada topa olmayotgani ham bugungi oliy ta'lim tizimida ma'lum muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xususan, ta'lim mazmuni va to'plangan boy ilmiy axborotlarning unda aks etishi orasida uzilish vujudga kelmoqda.

Shu sababdan o'qitishni va o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillarini qayta qarab chiqish zarur. Bunday muammolarni bartaraf etishda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyati va sifatiga e'tibor qilgan holda differentsiyalangan bo'lishi zarur.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, avvalo ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. Shu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik– o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. Shu sababdan ta'limning o'qituvchi-darslik-talaba paradigmasi talaba-darslik-o'qituvchi paradigmasi bilan o'rin almashishi zarurdir. Zamonaviy pedagog kadrlar yangi statusga ega bo'lib, uning vazifasi eng avvalo talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim.[17]. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish jarayonida o'qituvchi o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, ular talabalarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishigagina yordam berib qolmasdan, ayni paytda, ularda bilimlarni turli manbalardan mustaqil ravishda o'zlashtirish, shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi, erishilgan bilimlardan yangi bilimlar olishida foydalanish malakalariga ega bo'lishlariga ham vosita bo'lishi lozim. Bunday o'qitishni rivojlanuvchi ham deyish mumkin.

Shakl va mazmunning rang-barangligi talabaning qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, taklif etilayotgan qollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur. Ko'p sathli o'qitish mazkur muammoning echimi byla oladi deyish mumkin.

Hozirga paytdagi o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi talabadan kundalik fanlar majmuasi bilan ham, ular bo'yicha beriladigan topshiriqlar majmuasi bilan hisoblashishni talab qiladi. Bu esa amalda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Bunday sharoitda talabalar alohida olingan (o`zi juda qiziqadigan) biron bir fanga butun diqqat-e'tiborini to`liq qarata olmaydi. Mazkur hollarda, nazarimizda, modulli o`qitish eng yaxshi echim hisoblanadi.



O`qitish nazariyasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim paradigmasini o`zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarigina yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Ma'lumki axborot texnologiyalari-axborotlarni yig`ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidir.

Axborot texnologiyalarining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud bo`lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin.

-ichki omillar — bu axborotlarning paydo bo`lishi (yaratilishi), turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.

-tashqi omillar — bu axborot texnologiyalarining texnika-uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish esa, ular bilan muloqotda foydalanuvchilarning ko`nikma va malakalariga bog`liq. Shuning uchun, dastlab zamonaviy telekommunikatsiya vositalarining o`zi nimaligini bilib olish muhim sanaladi.

Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo`lib, unga ma'lum bo`lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, Internet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimi, bilimlar ombori kabilar misol bo`lishi mumkin.

XX asrning 90-yillaridan boshlab axborotlashtirish sohasi keskin rivojlanib ketdi. Bizning asrimiz, ya'ni XXI asrni axborotlashtirish va kommunikatsiya asri deb bejiz atashmaydi. Axborotlashtirish nima va uning vazifalariga nimalar kiradi, uning asosiy xususiyatlari qanday, degan savollar hozirgi zamon jamiyatidagi har bir fuqaroni qiziqtirishi tabiiy. Chunki inson faoliyatini axborotsiz tasavvur qilish qiyin.

Kundalik turmushda turli ko`rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli (audio), rasmi, video va boshqa axborotlar bilan ishlashga to`g`ri keladi. Har bir turdagi axborot bilan ishlash (yiqish, saqlash va h.k.) uchun har xil texnik xarakteristikalariga ega bo`lgan axborot qurilmalari kerak bo`ladi.

Mikroelektronika ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi va zamonaviy protsessorli kompyuterlarning yaratilishi axborotlarni qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida o`qitishni kompyuterlashtirishga katta e'tibor berilmoqda, chunki zamonaviy o`qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O`qitishni kompyuterlashtirish (axborotlashtirish) yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- * ta'lim tizimining barcha pog'onalarida axborotlashtirishni etakchi bo'g'inligini ta'minlash;
- * barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish (monitoring);
- * axborotlashtirish sohalarida me'yoriy bazalarni yaratish (ilmiy-metodik birlashmalar va h.k.);
- * texnik ta'minot-kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari, ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish;
- * telekommunikatsiya tarmoqlari;
- * ta'minot resurslari (dasturiy ta'minot, internetdagi axborotlar majmui, ma'lumotnomalar va h. k.).

Axborot texnologiyasidan foydalanish va uni biror-bir sohaga tatbiq etish o'z ichiga qator vazifalarni oladi. Quyida axborotlashgan faoliyat ob'ektlari haqida gap yuritamiz.

Bunday ob'ektlarga sonlar (o'lchash va modellashtirish natijalari), matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, rasmlar, chizmalar va animatsiyalar, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa) va boshqalar kiradi.

Foydalanuvchining mustaqil va ongli ravishda olib boradigan faoliyatiga axborot ob'ektlarini yaratish, kerakli axborot ob'ektlarini izlash, axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko'rinishda tasvirlash, axborot ob'ektlarini (matn, suhbat, rasm, o'yin va boshqa ko'rinishda) uzatish, modellashtirish, loyihalash, ob'ektlarni rejalashtirish va boshqalar kiradi [13].

Axborot texnologiyasi modellari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o'zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proektor, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta'minoti;

- * uskunaviy dasturiy ta'minot;
- * virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik xaritalar va h.k.;

* axborotlar majmui-ma'lumotnomalar, entsiklopediyalar, virtual muzeylar va h.k.; texnik ko`nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdan ma'lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o`zlashtirish va h. k.).

Taraqqiy etgan xorijiy davlatlar va respublikamizdagi etakchi ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalari asosida o`qitish dasturlari tahlili sifat jihatidan yangi o`qitish vositalari bo`lib, ular an'anaviy o`qitish metodlaridan tubdan farq qilishini ko`rsatmoqda. Bunday yondashishning asosiy vositalaridan biri sifatida, kompyuterda modellashtirish nazariyasini ko`rsatish mumkin.

Multimedia vositalari asosida o`qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter asosida to`liq o`qitish, ma'ruza matnlarini tahrir qilish, talabalar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o`quvchi-talabalar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko`rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo`ladi.

Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari bilan ishlaydigan o`qituvchilar quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari kerak:

- * ma'ruza matnlari, amaliyot bilan bog`liq topshiriqlarni tayyorlash;
- * uslubiy ko`rsatmalarni, nazorat savollarini, to`g`ri javoblar variantini tuzish;
- * ishchi dastur va texnologik xaritani tuzish;
- * bilimni nazorat qilish natijasini tahlil etish;
- * ma'ruza matnlarini tahrir qilish;
- * har bir mavzu bo`yicha dinamik ko`rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur etish;
- * mustaqil ishlar bo`yicha o`quvchilarga nazariy va amaliy savollar yuzasidan maslahatlar berishni tashkil qilish;
- * o`zlashtirilishi murakkab bo`lgan mavzular bo`yicha o`quvchilar bilan suhbat o`tkazish kabi talablar qo`yiladi.

Qo`yilgan ushbu talablar bo`yicha axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish pedagog-o`qituvchilarning ish faoliyatini osonlashtirib, o`quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini

yanada ko`tarishga erishiladi. IIIy bilan bir qatorda ta'lim muassasasi rahbariyatiga o`quvchilarning olgan bilimlarini, test natijalarini ko`rib borish va ularning o`zlashtirish darajasiga baho berish, o`qituvchilarning ma'ruza matnlari va boshqa mustaqil ishlariga mo`ljallangan materiallarining tayyorlash sifatiga baho berish, multimedia vositalari asosida laboratoriya ishlarini bajarish uchun kompyuterda modellashtirilgan animatsion taqdimotlar joriy etish, kursni o`zlashtirish bo`yicha uslubiy materiallarni tayyorlash uchun takliflar ishlab chiqish kabilarni amalga oshirish imkonini beradi.

Kompyuter-axborot texnologiyalari modelidan foydalanish masalasi o`qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo`lgan ob'ektning ichki, tashqi xossalarini ko`rsata olishdek muhim vazifani amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o`z navbatida axborot-pedagogik texnologiyalar asosida multimediali elektron darsliklar (MED) yaratish mumkin ekanligini ko`rsatadi.

Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari o`quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- * differentsial va individual y`itish jarayonini tashkil etilishi;
- * o`quv jarayonini baholash, teskari aloqa bog`lashi;
- * o`zini-o`zi nazorat qilish va tuzatib borishi;
- * o`rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko`rsatishi;
- * fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishi;
- * o`quvchi - talabalarga fanni o`zlashtirish uchun muhim ko`nikmalar hosil qilishi va hokazo.

Shuningdek, multimedia vositalarining amaliy tomoni, ulardan o`quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o`quv jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va animatsion taqdimotlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

1.2 Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashning pedagogik omillari.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan. Jahonda masofaviy o'qitish ochiq ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida keng quloch yoymoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhiti, o'zida axborot ob'ektlarini, ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtirgan bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimi insoniyatning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. Ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyati va sifatiga e'tibor qilgan holda differentsiyalangan bo'lishi kerak.

Yaqin o'tmishda jahonning ko'p mamlakatlarida hukmron bo'lgan o'rtacha o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim tizimi bugunda nafaqat o'quvchini, balki jamiyatni ham qoniqtirmayapti.

Har qanday ta'lim tizimi ma'lum bir ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy va nihoyat, siyosiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhitlarning eng ustuvori va ijtimoiy-iqtisodiy omil sanaladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniy va siyosiy muhit ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni rivojlantirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki maktab, oliy ta'lim muassasi insonni iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy hayotda faol faoliyat ko'rsatish

uchun tayyorlaydi. Shuning uchun ham maktab va oliy ta'lim muassasasi ta'limning tayanch bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish – bu o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o'qitishdir. Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, o'qitishni differentsiatsiyalash va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

Shakl va mazmunning rang-barangligi – o'quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib taklif etilayotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur. Har xil sathli o'qitish bunday muammoning echimi bo'la oladi.

O'quv mashg'ulotlarining o'quvchilarni kundalik fanlar majmuasi va ular bo'yicha berilgan topshiriqlar majmuasi bilan hisoblashishga to'g'ri keladigan qilib tashkil etilishi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holda o'quvchilar biron bir fanga o'zlarining diqqat e'tiborini to'liq qarata olmaydilar. Bunday notugalliklarni bartaraf etishda, nazarimizda, modulli o'qitish eng yaxshi echim hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi - bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bunda 3 ta asosiy vazifaga e'tibor qaratiladi:

1. Ta'lim tizimini isloh etish.
2. Mustaqil faoliyat tamoyilini ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e'tirof qilish.
3. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.

Zamonaviy insonning o'qish jarayoni faqat boqcha, maktab, litsey yoki kollej, oliy o'quv yurti bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta'lim olishi zarur, ya'ni ta'lim uzluksiz bo'lishi kerak. Demak, uzluksiz ta'lim - davr talabidir. Shuning uchun ham zamonaviy axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj shakllandi.

XXI asr axborotlashtirish asrida ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasida:

- o`qitish va o`qish jarayonining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi bo`linmalarining;
- ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan joriy etilishi zamonaviy texnologiyalarning qo`llanish sohasini kengaytiradi. Ayni paytda ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlanayotgan yo`nalishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ular:

1. O`quv maqsadlaridagi dasturiy vositalarning imkoniyatlarini o`qitish vositasi, o`rganish ob'ekti va axborotlarni qayta ishlash vositasi sifatida joriy etish.

2. O`quv-metodik majmualar yaratishda, o`quv-namoyish asboblari va kompyuter vositalari imkoniyatlarining integratsiyasi.

Bunday majmualardan foydalanish o`quvchiga o`rganilayotgan jarayon haqidagi axborotlarni jamlash, saqlash, jarayonlarning qonuniyatlarini mohiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar negizidagi o`quv-namoyish majmualarining qo`llanilishi individual va jamoaviy eksperiment faoliyatni tashkil etishga zamin yaratadi. Bu esa, o`quvchida intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish va mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratadi.

3. Multimedia tizimlarini yaratishda, kompyuterlar va audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlarining integratsiyasiga erishish.

Bunday tizimlar o`zida dasturiy-apparat vositalar va asboblarni majmuasini mujassamlashtirib, axborotning turli (matn, grafika, ovoz, tasvir) ko`rinishlarini birlashtiradi va foydalanuvchi bilan interfaol muloqotni tashkil etadi. Multimedia tizimlaridan foydalanish, faol o`qitish metodlari va shakllarini joriy etishni ta'minlaydi, axborotlarning qabul qilinish darajasini oshiradi.

4. Sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan intellektual o`qitish tizimlarini yaratishda foydalanish. Bunday o`qitish tizimlari mustaqil bilim olish jarayonini tashkil etish, mustaqil ravishda bilimlarni o`zlashtirish, o`quv faoliyatini

intellektuallashtirishni rivojlantirishga zamin yaratadi. Bular barchasi o`quvchi shaxsini rivojlantirish jarayonini jadallashtiradi.

5. Global va lokal kompyuter tarmoqlari orqali axborot almashuvini ta'minlovchi telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish.

Telekommunikatsiya aloqasi (sinxron, asinxron) qisqa vaqtda ilg`or pedagogik texnologiyalarning tarqalishiga, o`quvchining umumiy rivojlanishiga yordam beradi.

6. Axborot almashuvining yangi texnologiyasi – bu real vaqt rejimida stereoskopik tasavvur tizimi, ya'ni «Virtual haqiqiylik» hisoblanadi.

Bunday tizimdan stereometriya, chizmachilik, muhandislik grafikasi kabi fanlarni o`qitishda foydalanish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik saviyasini yanada oshiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida joriy etilish tahlili ularning:

- * o`quvchiga dunyoviy bilimlarni egallashiga;
- * o`rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o`zlashtirilishiga;
- * o`quv faoliyatini tashkil etishning xilma-xilligi hisobiga o`quvchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- * interfaol muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o`qish jarayonini individuallashtirish va differentsiyalashtirishga;
- * sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali o`quvchida o`quv materiallarini o`zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- * jamiyatning har bir a'zorida axborot madaniyatini shakllanishiga;
- * o`rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, o`quvchilarda qiziqishni va faollikni oshirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko`rsatdi.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim paradigmasini o`zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarigina yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlay oladi.

An'anaviy va zamonaviy axborot texnologiyalari muhitidagi pedagogik ta'limlarning asosiy ko'rsatkichlarini taqqoslash axborotlashtirilgan pedagogik ta'limning istiqbolli ekanligini yaqqol namoyon qildi. Buni quyidagi fikrlar asosida ham tasdiqlash mumkin. An'anaviy didaktika o'z oldiga o'quvchining aqliy rivojlanishini tezlatishni, o'quv faoliyatining malaka va ko'nikmalarini, bilimni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirishni ta'minlovchi metodik usullarni yaratishga qaratilgan o'qitish nazariyasini shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi.

Axborotlashgan pedagogik ta'limda didaktika va axborot jamiyat a'zosining intellektual rivojlanishini jadallashtirish zarurligini aniqlovchi ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik ta'sirga ega bo'lib, shaxsning intellektual salohiyatini namoyish etishni va rivojlanishini o'zining asosiy maqsadi etib qo'yadi. Bu maqsadga, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini joriy etish orqaligina to'liq erishish mumkin.

An'anaviy didaktika, o'quvchining mustaqil ishlashiga jiddiy e'tibor bermagani holda, asosan ko'rgazmali-tushuntiruv usulini taklif qiladi. O'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va mustaqil faoliyatni faollashtirishning ayrim ko'rinishlari muammoli o'qitish, o'qitishni algoritmlash nazariyalarida o'z aksini topgan. [35].

Bu nazariyalarga oid qoyalarning samarali joriy qilinishi bilim saviyasining, undagi sifatning ortishiga, o'quv materiallarini o'zlashtirishga sarflanadigan vaqtning tejashiga, aqliy faoliyatlarning shakllanishiga olib keladi. Ammo bularning barchasi, o'qitishning metodlari va vositalaridan qanday foydalanishga va uning darajasiga bog'liq.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatining keng jabhali turlarini taklif etadi. Bu muhitdagi didaktika fikrlashni, shaxsning salohiyati va imkoniyatlarini, estetik tarbiyani, unda axborot madaniyatini tarbiyalashni, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishni, o'quv-axborot faoliyati bo'yicha malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning pedagogik maqsadlari bayon etiladi. Axborot texnologiyalari o`quvchi shaxsining:

- fikrlashini;
- estetik tarbiyasini;
- kommunikativ qobiliyatini;
- optimal qaror qabul qilish malakasini;
- axborot madaniyatining rivojlanishini ta'minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, o`quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi ortishi, o`quvchilarning bilish faoliyatini faollashuvini, fanlararo aloqalarning chuqurlashuvini kuzatish mumkin.

Didaktika nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadigan, axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikga erishiladigan metodik maqsadlarga:

- o`qitish jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash;
- teskari aloqa bilan o`quv faoliyati nazoratini olib borish;
- o`z-o`zini nazorat qilish;
- o`quv materialini o`zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish;
- o`quv vaqtini tejash;
- o`quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish;
- o`rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish;
- kompyuterda laboratoriya mashg`ulotlarini bajarish;
- axborot ma'lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish;
- o`qishga qiziqishni orttirish;
- o`quvchini o`quv materialini o`zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish;
- fikrlashni rivojlantirish;
- optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish;
- o`quvchida axborot madaniyatini shakllantirish kabilarni kiritish

mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalari mikro va makro dunyodagi, murakkab qurilmalar va biologik tizimlardagi hodisa va jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirishidan foydalanish asosida o`rgatish, juda katta yoki juda kichik tezlikda sodir b`ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni qulay vaqt o`lchamida taqdim etish kabi yangi didaktik masalalarni echishga yordam beradi.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari muhitining shakllanishi:

* fan sohalarini axborotlashtirish;

* o`quv faoliyatini intellektuallashtirish;

* integratsiya jarayonlarini tezlashtirish;

* ta'lim tizimi infrastrukturasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Ta'limni axborotlashtirish – ta'lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik maqsadlarini amalga oshirishga yo`naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni, ta'lim sohasida ularni yaratish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

Bu jarayon, birinchidan, ilmiy-pedagogik ma'lumotlar bazasidan foydalanish asosida ta'lim tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirishni, ikkinchidan, zamonaviy axborot jamiyatida, shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni, uchinchidan, o`quvchini intellektual salohiyatini rivojlantirishga, unda mustaqil bilim olish malakasini shakllantirishga yo`naltirilgan o`qitishning metodik tizimini yaratishni va nihoyat to`rtinchidan, o`quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning diagnostik metodlarini, xususan kompyuter testlarini yaratishni va ulardan foydalanishni maqsad qiladi.

Ta'limni axborotlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni o`qitishdagi tashkiliy shakllar va metodlarning o`zgarishigagina emas, balki undagi yangi metodlarning shakllanishiga ham olib keladi.

Fanlar sohasining axborotlashuvi, o`quv faoliyatining takomillashuvi, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida bilish jarayonining integratsiyalashuviga, fanlar

sohasining kengayishiga, chuqurlashuviga va ularning integratsiyasiga sabab bo`ladi. Bu esa, o`z navbatida, o`quv materiallari mazmunini tanlash mezonlariga o`zgartirishlar kiritishni taqozo qiladi.



Shunday qilib, ta'limni axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi, o`quv materiallarining mazmuni va hajmini o`zgarishiga, o`quv predmetlari (kurslari) dasturlarini qayta ishlab chiqishga, alohida mavzular yoki predmetlarning integrallashuviga sababchi bo`ladi. Bu esa, o`quv fanlarining mazmuni va strukturasi o`zgarishiga, binobarin, ta'limning mazmuni va strukturasi o`zgarishiga olib keladi.

Bu jarayonga parallel ravishda, o`quvchilar bilim saviyasi muammosiga, kompyuter texnologiyalari asosidagi innovatsion yondashuvni joriy etish lozim bo`ladi.

Ta'lim mazmuni va tarkibi, nazorat va o`qitishning tashkiliy shakllari, metodlari haqidagi tasavvurlarning o`zgarishi o`qitish jarayonida xususiy metodikani ham takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini imkoniyatlaridan foydalanish va shu tufayli o`quv faoliyatining kengayishi, o`qitish vositalari va darsliklarga bo`lgan didaktik talablarning sifatii o`zgarishlariga olib keladi.

Yuqorida ta'kidlangan holatlar ta'lim-tarbiya nazariyasi tarkibii qismlarining o`zgarishiga, ya'ni pedagogika fani paradigmasining o`zgarishiga olib keladi.

Dunyoda masofavii o`qitishning, ochiq ta'lim tizimining muhim bo`g`ini sifatida keng qo`llanilishi, shuningdek, ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari va internetdan foydalanish uning sifatini yuqori ko`tarish omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, oliy pedagogik ta'lim tizimida turli fanlarni, jumladan fizikani o`qitishda keng joriy etilmoqda.

O`quv jarayonida yangi axborot texnologiyalarni qo`llash, pedagogik metodlarning samaradorligini oshirishga, pedagoglarning mehnat faoliyatini o`zgarishiga, ularning ish uslublarini takomillashtirishiga, pedagogik tizimlarning strukturavii o`zgarishiga olib keladi. Bu esa pedagogik jarayonlarni boshqarishni tashkil etish va boshqarishda o`ziga xos vazifalarni qo`yadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish:

- o`qituvchilar o`rtasida mehnat taqsimotini;
- masofavii o`quv kurslari va elektron adabiyotlarning yaratuvchisi bo`lgan jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislarining birlashuvini;
- pedagogik jarayonning tashkil qilinishini takomillashtirish va o`qituvchi faoliyati samaradorligining monitoringini olib borishni taqozo etadi.

Yangi texnologiyalar asosidagi pedagogik faoliyat:

- ta'limdagi texnologik asoslarning tez rivojlanishi bilan bog`liq bylgan yangi kurslarni yaratishdek murakkab jarayonlarning engillashuvini;
- o`quv kurslarini yaratishda maxsus malakalarning shakllanishini;

- masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga boʻlgan talablarning va oʻquv materiallari sifatini nazorat qilishga oid ehtiyojlarning qondirilishini;

- oʻquv jarayonida oʻquvchi faoliyatining ustivor mavqe tutishini, oʻquv jarayoni salmoqining oʻqituvchidan oʻquvchiga koʻchishini;

- yangi kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asosida, oʻqituvchining har bir oʻquvchi bilan teskari aloqasini vujudga kelishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda pedagogik ta'lim samaradorligini oshirish bilan bevosita aloqador boʻlgan bir qator qozirgacha echimini topmagan muammolar mavjud. Bu muammolar ta'lim sohasini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish malakasining etarli emasligi bilan bogʻliq boʻlmoqda.

Bu muammolarning muhim qirralaridan biri sifatida pedagoglarning oʻzlaridagi ta'limni axborotlashtirishga boʻlgan munosabatlarini koʻrsatish mumkin. Shu narsani ta'kidlash joizki, axborotlashtirish sharoitida pedagogning roli yanada oshadi.

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu, oʻz navbatida pedagoglarning oʻz mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Oʻquv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, oʻqituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishga emas, balki uning vazifalari, rolini oʻzgartiradi, oʻqituvchilik faoliyatining murakkablashuviga olib keladi.

Endi oʻqituvchidan:

- oʻquv kurslari dizayneri – oʻquv kurslarini yaratuvchi;

- fasilitator – oʻqitish metodlari boʻyicha maslahatchi;

- kompiyutor-oʻquv kurslarini interfaol taqdim etish boʻyicha mutaxassis;

- invigilator – ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari boʻyicha mutaxassis boʻlish talab etiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, masofaviy oliy pedagogik fizik ta'limni yangicha tashkil qilinishiga asos yaratadi. Bunday ta'limda fizik-pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislari yordamida Yangi o'qitish kurslarini yaratishlari lozim bo'ladi. Masofaviy o'qitish kurslarini yaratishda dastlab:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlash lozim.

Bularning barchasi kurslarni yaratuvchi – o'qituvchilar (kurslar dizayneri) va texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar hamkorligida amalga oshiriladi.

O'quvchi va o'qituvchining o'rtasidagi kommunikatsiya turiga ko'ra masofaviy o'qitish metodlarining quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

- mustaqil o'qish usullari;
- «birga-bir» pedagogik usuli;
- «birga-ko'pchilik» o'qitish;
- kommunikatsiya asosida «ko'pchilik-ko'pchilik» ta'limi.

Masofaviy mustaqil o'qish uchun multimedia yondashuvi xarakterlidir. Mustaqil o'qishni tashkil etishda an'anaviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlarini 1-jadvalda keltirilgan taqqoslash orqali ko'rish mumkin.

An'anaviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlari.

1-jadval.

An`naviy ta`lim.	Zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta`lim
Nashir materiallari.	Nashir materiallari.
	Audio va video materiallari.
	Komp`yuter o`rgatuvchi dasturlar.
	Elektron jurnallar.
	Interfaol ma`lumotlar bazasi.
	Komp`yuter tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa o`quv materiallar.

«Birga-bir» masofaviy o`qitish metodi – bu individuallashtirilgan o`qitish va o`qish metodidir. Bunda o`quv muloqotlarining o`quvchi-o`qituvchi, o`quvchi-o`quvchi shakllari qatnashadi. Bu metod uchun telefon, ovozli pochta, elektron pochta kabi texnologiyalarni qo`llash talab etiladi. Kompyuter tarmoqlariga asoslangan «teleustozlik»ni rivojlantirish muhim yo`nalish hisoblanadi.

«Birga – ko`pchilik» o`qitish usuli uchun an'anaviy va zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'lim afzalliklarini 2-jadvalda keltirilgan taqqoslash orqali ko`rish mumkin.

An'anaviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta'lim afzalliklari.

2-jadval

Dars turlari.	Ko`rgazmali vositalar.
<i>Ma`ruza</i>	Audio va video ma`ruzalar.
<i>Ma`ruza</i>	Radio va TV ma`ruzalar.
<i>Ma`ruza</i>	Ma`ruza-elektron ma`ruzalar.

Zamonaviy texnologiyalar o`qitish usullarini ham takomillashtirishga ishonch hosil qilish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayoniga yangi terminlarni olib kiradi. Keyingi vaqtlarda elektron lektsiyalar, ya'ni elektsiya tushunchasi paydo bo`ldi. Elektsiya - bu kompyuter tarmoqlari orqali tarqatiluvchi lektsiya materiallaridir. Elektsiya nafaqat ma'ruza matnlaridan balki o`quvchini bahslarga tayyorlashga xizmat qiluvchi o`quv materiallari, maqolalar, ularning qisqartmalaridan tashkil topishi mumkin.

Kommunikatsiya asosida «ko`pchilik-ko`pchilik» ta'limi – o`quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning o`zaro faolligi bilan xarakterlanadi. Jamoaviy o`quv bahslari va konferentsiyalarning o`tkazilishi bu metodning rivojlanishiga olib keladi. O`quv muloqotlari o`quvchilar-o`qituvchi va o`quvchilar-o`quvchilar shaklida bo`ladi. Bu metod sinxron va asinxron audio, audiografik, video va kompyuter konferentsiyalari texnologiyalariga asoslanadi.

Kompyuter kommunikatsiya texnologiyalari bahslar, modellashtirish, aqliy hujum, delfi metodi, forumlar, loyihalash guruhlarini kabi o`qitish metodlaridan faol foydalanishga imkon beradi.

Pedagogik ta'lim muhitining samarasi, yangi texnologiyalar negizida o`qitish mazmunining rivojlanishiga, ta'lim muhiti interfaolligi rivojiga, ta'lim jarayonida o`quvchining faolligini rivojlantirishga, moslashuvchan o`quv jarayonining tashkil etilishiga bog`liqdir.

Zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari oliy pedagogik ta'lim mazmuni rivojlanishini ta'minlaydi. Bu texnologiyalar:

- ta'lim mazmunini tashkillashtirish;
- ta'lim mazmuniga oid elementlarni bog`lash;
- axborotlarning turli ko`rinishlaridan foydalanish;
- kurslarni darslar(mavzular) majmuasi ko`rinishida taqdim etish;
- darsni virtual harakatlar tizimi sifatida yaratish;
- o`quv materiallarini o`zlashtirishning ketma-ketligini ta'minlash;
- o`quv materiallari mazmunini o`quvchiga moslashtirish;

- turli sohalarda ta'lim mazmunini rivojlantirish (kurs yaratuvchilar, o`qituvchilar, metodistlar, o`quvchilar);

- o`quv maqsadlariga erishishda, professional bahslardan foydalanish uchun vosita bo`lib xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim beruvchilarning ham, ta'lim oluvchilarning ham faolligini oshiradi. Bunday faollik muhiti, o`zaro ijodiy hamkorlikning sifatini va samaradorligini yangi boshichga k`ytaradi.

Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar o`quv jarayonining tez takomillashishini va yangi texnologik muhitga moslashishini taqozo etadi. Moslashuvchan o`quv jarayonini tashkil etish zamonaviy axborot texnologiyalari asosida, o`quv materiallarini yaratishning turli:

- kompyuter y`rgatuvchi tizimlarining arxitekturasini yaratish;
- amaliy o`rgatuvchi kompyuter dasturlarini shakllantirish;
- o`qitishning turli usullari va vositalari orqali aniq o`quv jarayonini shakllantirish boshichlarida moslanuvchanlik printsipting bo`lishini talab etadi. Bunday printsipt asosida tayyorlangan o`quv materiallari o`quvchining bilim darajasi, malakasi, psixologik xususiyatlari, o`quv guruhlarining o`ziga xos xususiyatlari va o`qitishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o`zida mujassamlashtirgan bo`ladi.[20].

O`quv jarayoni uchun texnologiyalarni tanlashda quyidagilarga muhim omillar sifatida e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlash mumkin:

- o`quv jarayonida yangi texnologiyaning o`zi emas, balkim undan foydalanib ta'limning maqsadlariga erishishni ta'minlashning muhimligi;
- eng zamonaviy va qimmat texnologiyalar bilan bir qatorda, arzon va an'anaviy texnologiyalar ham samara berishi mumkinligi;
- o`qish natijalari telekommunikatsiya yoki axborot texnologiyalarining turiga qarab emas, balki kurslarni yaratish va uzatish sifatiga bog`liqligi;
- texnologiyalarni tanlashda o`quvchining shaxsiy xususiyatlariga, alohida olingan fan sohasining o`ziga xos tomonlariga, o`quv mashg`ulotlari, topshiriqlari va mashg`ularining mazmuniga e'tibor qaratish lozimligi;

texnologiyalarni tanlashda, eng samarali yo`llardan biri - bu multimedia yondashuvidir.

Ta'lim mazmunini va uning sifatini yaxshilash masalalari ustuvor yo`nalish sifatida qaralayotgan paytda ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish, uning rivojlanishiga va samaradorligining ortishiga zamin yaratadi.

Kompyuterlarning ta'limda keng qo`llanilishi natijasida «ta'limning yangi axborot texnologiyalari» termini paydo bo`ldi. Umuman aytganda, har qanday pedagogik texnologiya - bu axborot texnologiyasidir, chunki ta'limda texnologik jarayonning asosini axborot va uning harakati (o`zgarishi) tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, kompyuterdan foydalanishga asoslangan ta'lim texnologiyalari uchun «kompyuter texnologiyalari» termini munosibdir[18].

Kompyuter texnologiyalari dasturiy o`qitish g`oyasini rivojlantiradi, kompyuter va telekommunikatsiyalarning katta imkoniyatlari bilan bog`liq o`qitishning mutlaqo yangi texnologik variantlarini ochib beradi. Kompyuter (yangi axborot) texnologiyalari – kompyuter asosida o`quvchiga axborotlarni tayyorlash va etkazish jarayonidir. Kompyuter texnologiyalari quyidagi variantlarda namoyon bo`lishi mumkin:

I - «kirib boruvchi» texnologiyalar (alohida mavzular, bo`limlar bo`yicha ma'lum bir didaktik masalalar uchun kompyuter o`qitishni qo`llash).

II - asosiy, o`qllanayotgan aniq texnologiyadan o`ta muhim qismini aniqlovchi.

III - monotexnologiyalar (ta'lim, o`quv faoliyatni boshqarish, diagnostika va monitoring kompyuterlarni qo`llashga asoslanadi).

Hozirda zamonaviy axborot texnologiyalari ta'limda faol o`qllanilmoqda. Shu bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

- ta'limni axborotlashtirishga pedagogik jamoalarning etarli tayyor emasligi;
- kompyuter yrgatuvchi dasturlarning imkoniyatlari ?a?ida tasavvurlarning ozligi, ularni ?y`llash b`yyicha metodik ishlanmalarning kamligi;
- kompyuter texnologiyalari vositalarining ?immatligi;

- ta'limda axborot texnologiyalari b̄yicha mutaxassislarning etishmasligi.

Ta'lim muassasida zamonaviy axborot texnologiyalari muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda har bir ta'lim muassasida individual va maslahat mashg'ulotlar asosida pedagoglarni mustaqil va kompyuter ta'limi tizimini tashkil etish kerak. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan modellar orasidan quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- yangi o`quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanuvchi darslar;
- internet o`rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida tashkil etilgan darslar;
- pedagoglarning darslarga metodik tayyorlanishi, qo`shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirishi, didaktik materiallarni tayyorlashi;
- kompyuter texnologiyalaridan o`quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish.

Har bir modelga o`ziga xos texnik jihozlangan kompyuter ishchi o`rinlari to`g`ri keladi. Kompyuterlarni o`quv jarayoniga joriy etish bo`yicha bizning tajribamizdan kelib chiqib, predmet kompyuter sinflari va kompyuterlar bilan jihozlangan o`quv sinflarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O`qitishni kompyuterlashtirish tor ma'noda kompyuterlarni o`qitish vositasi sifatida qo`llash bo`lsa, keng ma'noda o`quv jarayonida kompyuterlardan ko`pmaqsadli foydalanish nazarda tutiladi. O`qitishni kompyuterlashtirishning asosiy maqsadi o`sib borayotgan avlodni axborot jamiyatiga tayyorlash va axborot texnologiyalari vositalarini joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishdan iboratdir.

O`qitish jarayonini kompyuterlashtirish (axborotlashtirish)da ikki yo`nalishni ajratish mumkin: kompyuterni o`quv faoliyatining vositasi sifatida qo`llashning barcha usullarini o`zlashtirish hamda kompyuterdan o`rganish ob'ekti sifatida

foydalanish. Kompyuterni texnik xarakteristikalarining va dasturiy ta'minotining takomillashib borishi, didaktik imkoniyatlarining kengayishi uning o`qitish vositasi sifatida yangi xossalarni namoyon qilmoqda.

Kompyuterlar yordamida o`qitishning rivojlanish tarixida ikki tizim: an'anaviy va intellektual o`qitishni ajratish mumkin. Intellektual o`qitish tizimining asosiy xususiyati shundaki, u o`quv masalalarini hal etishda barcha bosqichlar xususiyatlarini inobatga olgan holda o`quv faoliyatini boshqarishni nazarda tutadi. Intellektual o`qitish tizimida individuallashtirilgan o`qitish o`quvchining dinamik modeli asosida amalga oshiriladi.

Bunday tizimlar o`quvchi va kompyuter o`rtasida boshqaruv vazifalarini taqsimlash imkoniyatini berish orqali o`quvchining o`quv faoliyatini shakllanib borishida barqarorlik, muntazamlilikni beradi, ya'ni mustaqil o`qishga o`rgatishga optimal tarzda o`tish amalga oshiriladi.

Kompyuterlar vositasida o`qitish o`quv jarayonining barcha jabhalariga samarali ta'sir ko`rsatadi. Kompyuterlarning o`qitish mazmuniga ta'siri o`quvchilarga ko`plab imkoniyatlarni ochib beradi. Bu kompyuterlarning o`quv materiallarini namoyish etish imkoniyatlarining yuqoriligi, sun'iy intellekt g`oyalarini joriy etilishi, o`quvchilarga ko`plab axborotlarni etkazish vositasi ekanligi bilan bog`liqdir. Ikkinchi tomondan kompyuterlar o`qitish mazmuniga har xil evristik vositalarni kiritadi. Kompyuterlarning muhim ahamiyatli tomonlaridan biri ularning integratsiyalashgan o`quv fanlarini yaratishga real imkoniyat vujudga keltirishidir.

O`quv maqsadlarida kompyuterlardan foydalanish o`quvchilarning faoliyatini o`zgartiradi. Endi o`quvchi pedagogga murojaat etmasdan turib zarur axborotlarni mustaqil izlab topishga, ya'ni mustaqil tadqiqot olib borish imkoniyatiga ega bo`ladi. Kompyuter o`qitishning ikkinchi yo`nalishi kompyuterlarni o`rganish ob'ekti sifatida qo`llashdir.

Kompyuterlarning o`quv jarayonida o`qitish vositasida qo`llanilishi didaktika va pedagogik psixologiyaning ko`pgina nazariy asoslarini qayta ko`rishni taqozo etadi. Jumladan ekspert tizimlar o`quvchini istalgan murakkablikdagi masalani

echishda to'g'ri echimga olib kelish, gipermatn o'rgatuvchi tizimlar esa o'quvchiga o'quv materiallarini o'zlashtirish ketma-ketligini tanlash imkoniyatlarini beradi.

Ta'kidlash joizki, kompyuterlar vositasida o'qitish o'qitishdagi barcha muammolarning o'z-o'zicha echilishga olib kelmaydi. Kompyuter pedagogni o'quv jarayonidan siqib chiqara olmaydi, ya'ni yangi axborot texnologiyalari an'anaviy texnologiyalarning o'rnini to'liq qoplay olmaydi. Matn muharririda tayyorlangan didaktik materiallar o'quv jarayoni imkoniyatlarini kengaytiradi, ya'ni bu jarayonni samarali va xilma-xil qiladi va o'qishga qiziqishni oshiradi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar auditoriyasining tayyorgarlik darajasiga qarab didaktik materiallarni shakllantirish mumkin. Yaxshi ulguruvchi o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar tayyorlash yoki murakkab testlar berish imkoniyatlari yaratiladi.

Didaktik materiallarni tayyorlashda pedagog o'zining kasbiy vazifalarini bajarishga qaratilgan materiallar tayyorlayotganini esda tutishi lozim.

Elektron taqdimotlardan darsga namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni engillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham tarqatish mumkin.

Slaydlarga nisbatan o'quvchilar o'zlarining fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga ega bo'ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o'zining o'quv-bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday metodika o'qituvchiga yangi axborotlarni ko'paytirib borish, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini o'zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo'ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

Metodik jihatdan o`qituvchi va o`quvchining o`zaro muloqoti ikki turdagi ta'sirdan iborat bo`ladi.

Birinchi tur ta'siri: o`qitishning ma'lum bosqichida o`quvchiga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo`naltiruvchi savollar.

Ikkinchisi: masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usulini ko`rsatish.

Savollar va ko`rsatmalar soni nazariy va amaliy materiallarning o`quvchi tomonidan q`zlashtirilishi hamda malakaning shakllanishiga bog`liq ravishda beriladi.

O`qitish jarayonini kompyuterlashtirish (axborotlashtirish)da ikki yo`nalishni ajratish mumkin: kompyuterni o`quv faoliyatining vositasi sifatida qo`llashning barcha usullarini o`zlashtirish hamda kompyuterdan o`rganish ob'ekti sifatida foydalanish. Kompyuterni texnik xarakteristikalarining va dasturiy ta'minotining takomillashib borishi, didaktik imkoniyatlarining kengayishi uning o`qitish vositasi sifatida yangi xossalarini namoyon qilmoqda.

Kompyuterlar yordamida o`qitishning rivojlanish tarixida ikki tizim: an'anaviy va intellektual o`qitishni ajratish mumkin. Intellektual o`qitish tizimining asosiy xususiyati shundaki, u o`quv masalalarini hal etishda barcha bosqichlar xususiyatlarini inobatga olgan holda o`quv faoliyatini boshqarishni nazarda tutadi. Intellektual o`qitish tizimida individuallashtirilgan o`qitish o`quvchining dinamik modeli asosida amalga oshiriladi. Bunday tizimlar o`quvchi va kompyuter o`rtasida boshqaruv vazifalarini taqsimlash imkoniyatini berish orqali o`quvchining o`quv faoliyatini shakllanib borishida barqarorlik, muntazamlilikni beradi, ya'ni mustaqil o`qishga o`rgatishga optimal tarzda o`tish amalga oshiriladi.

Kompyuterlar vositasida o`qitish o`quv jarayonining barcha jabhalariga samarali ta'sir ko`rsatadi. Kompyuterlarning o`qitish mazmuniga ta'siri o`quvchilarga ko`plab imkoniyatlarni ochib beradi. Bu kompyuterlarning o`quv materiallarini namoyish etish imkoniyatlarining yuqoriligi, sun'iy intellekt g`oyalarini joriy etilishi, o`quvchilarga ko`plab axborotlarni etkazish vositasi ekanligi bilan boqliqdir. Ikkinchi tomondan kompyuterlar o`qitish mazmuniga har xil evristik vositalarni kiritadi. Kompyuterlarning muhim ahamiyatli tomonlaridan biri

ularning integratsiyalashgan o`quv fanlarini yaratishga real imkoniyat vujudga keltirishidir.

O`quv maqsadlarida kompyuterlardan foydalanish o`quvchilarning faoliyatini o`zgartiradi. Endi o`quvchi pedagogga murojaat etmasdan turib zarur axborotlarni mustaqil izlab topishga, ya'ni mustaqil tadqiqot olib borish imkoniyatiga ega bo`ladi. Kompyuter o`qitishning ikkinchi yo`nalishi kompyuterlarni o`rganish ob'ekti sifatida qo`llashdir.

Kompyuterlarning o`quv jarayonida o`qitish vositasida qo`llanilishi didaktika va pedagogik psixologiyaning ko`pgina nazariy asoslarini qayta ko`rishni taqozo etadi. Jumladan ekspert tizimlar o`quvchini istalgan murakkablikdagi masalani echishda to`g`ri echimga olib kelish, gipermatn o`rgatuvchi tizimlar esa o`quvchiga o`quv materiallarini o`zlashtirish ketma-ketligini tanlash imkoniyatlarini beradi.

Ta'kidlash joizki, kompyuterlar vositasida o`qitish o`qitishdagi barcha muammolarning o`z-o`zicha echilishga olib kelmaydi. Kompyuter pedagogni o`quv jarayonidan siqib chiqara olmaydi, ya'ni yangi axborot texnologiyalari an'anaviy texnologiyalarning o`rnini to`liq qoplay olmaydi. Matn muharririda tayyorlangan didaktik materiallar o`quv jarayoni imkoniyatlarini kengaytiradi, ya'ni bu jarayonni samarali va xilma-xil qiladi va o`qishga qiziqishni oshiradi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali o`quvchilar auditoriyasining tayyorgarlik darajasiga qarab didaktik materiallarni shakllantirish mumkin. Yaxshi ulguruvchi o`quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar tayyorlash yoki murakkab testlar berish imkoniyatlari yaratiladi. Didaktik materiallarni tayyorlashda pedagog o`zining kasbiy vazifalarini bajarishga qaratilgan materiallar tayyorlayotganini esda tutishi lozim.

Oqituvchi, dastlab, o`quvchilarni elektron jadval shablonlarini to`ldirish uchun tayyorlaydi, o`quvchilar laboratoriya ishlari natijalarini jadvallarga kiritadilar, bu ma'lumotlarni qayta ishlaydilar. Aslida oddiy ko`ringan mazkur hisoblashlar orqali o`quvchilar kompyuter texnologiyalaridan qulay vosita sifatida foydalanishga o`rganadilar va nihoyat elektron jadvallarning ajoyib xususiyati –

ko`rsatkichlarning o`zgarishida formulalarning hisoblashlarni mos amalga oshirishini ta'minlash mumkin. Bu esa uncha murakkab bo`lmagan geografik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradi.

Elektron taqdimotlardan darsga namoyish va ko`rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O`quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o`tilayotgan mavzuni tushunishni engillashtiradi va ko`rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o`quvchilarga tarqatma material sifatida ham tarqatish mumkin.

Slaydlarga nisbatan o`quvchilar o`zlarining fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga ega bo`ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo`yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o`zining o`quv-bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday metodika o`qituvchiga yangi axborotlarni ko`paytirib borish, o`quvchilarning tayyorgarlik darajasini o`zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo`ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

Metodik jihatdan o`qituvchi va o`quvchining o`zaro muloqoti ikki turdagi ta'sirdan iborat b`yladi. Birinchi tur ta'siri: o`qitishning ma'lum bosqichida o`quvchiga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo`naltiruvchi savollar. Ikkinchisi: masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usulini ko`rsatish.

Savollar va ko`rsatmalar soni nazariy va amaliy materiallarning o`quvchi tomonidan o`zlashtirilishi hamda malakaning shakllanishiga bog`liq ravishda beriladi.

Oliy ta'lim tizimi oldida talabalarning kompyuter muqitidagi mustaqil ta'limini tashkil etishni psixologik asoslashda muammolar mavjud. Bu muammolar bir qancha psixologik-pedagogik masalalar bilan bog`liq. Masalan, hozirda masofaviy ta'limni tashkil etishning psixologik sharoitlarini tahlil etuvchi to`laqonli tadqiqotlar mavjud emas. Kompyuter ta'limi muhiti tushunchasi hali psixologik nuqtai nazardan o`zining ifodasini topgani yo`q. Bunday muhitda ta'lim olgan

mutaxassisning psixologik modeli va professiogrammasi yaratilgan emas. Masofaviy ta'limning didaktik va metodik masalalari psixologik asoslanmagan. Yuqoridagilardan kelib chiqib masofaviy ta'lim sohasida psixologik tadqiqotlar quyidagi yo`nalishlarda olib borilishi mumkin:

1. Masofaviy ta'lim muhitida inson uchun zarur psixologik xususiyat va sifatlar masalasiga e'tibor qaratmoq zarur.

2. Talabalarning psixologik xususiyatlarini o`rganish orqali «Effektiv ta'lim oluvchi»ning psixologik modelini yaratish, ya'ni uning aqliy rivojlanishi, axborotlarni qabul qilishi, shaxsiy ko`rsatkichlarini psixologik tadqiq etish lozim[20].

3. «Elektron axborot tizimi - talaba» o`zaro bog`liqligi tizimida psixologik nuqtai nazardan metodik vositalar va o`qish turini asoslash zarur, yaratilayotgan elektron adabiyotlarga psixologik talablar tizimini shakllantirish kerak.

1.3. O`quv – tarbiya jarayonining axborot texnologiyalarini loyihalash.

Axborot texnologiyalarining pedagogik vositalari o`qitish ob'ektlari va sub'ektlarining pedagogik o`zaro ta'sir ko`rsatish shakllari, uslublari, usullari va vositalarining yig`indisidan iborat. Ular, o`quvchining zarur shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini shakllantirish, shuningdek ularning muayyan vaqtdagi shakllanganligi darajasining aniqlanishi amalga oshiriladigan o`ziga xos pedagogik vositalardan iborat.

Ko'pgina pedagoglar tomonidan o'qitish shakllari deganda o'quvchilarning muayyan tarkibi va guruhini, ta'lim-tarbiyaviy chora-tadbirlarning tuzilishi, ularni o'tkazish joyi va davomiyligini ochib beradigan ushbu turdagi pedagogik faoliyatning tashkiliy tomoni tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, bu ko'rinishning turli nuqtai nazarlariga ega bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonning tashqi ifodasidir. Natijada o'qitish shakllarining tasniflanishini amalga oshirish etarlicha murakkabdir. Biroq, ularni miqdoriy mezon bo'yicha uch guruhga birlashtirish mumkin: o'qitishning ommaviy, guruhli (jamoaviy) va individual shakllari.

Ta'kidlangan guruhlardan har biri boshqalaridan ko'ra ham ustunliklarga, ham kamchiliklarga ega bo'lgan shakllarni o'z ichiga oladi. Masalan, televizion va radio ko'rsatuvlar o'qitishning ommaviy shakllari sifatida etarli darajada katta ta'lim maydonida ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Ammo ularning pedagogik samaradorligini tushirib yuboradigan yosh, kasbiy, shaxsiy va boshqa xususiyatlari mavjudligi hisobga olinmaydi. Shu bilan bir vaqtda ushbu kamchilik individual suhbatda to'liq bartaraf etiladi, biroq boshqa — o'quvchilarning pedagogik o'zaro ta'siri orqali etarli bo'lmagan jalb etishi namoyon bo'ladi. Biroq, ularning mavjud bo'lish huquqi u yoki bu o'qitish texnologiyasida qo'yiladigan maqsadlar bilan ta'minlanadi.

Ko'pincha axborot texnologiyalarida o'qitishda qo'llaniladigan shakllar (masalan, ma'ruza, hikoya, tushuntirish va boshqalar) amalga oshiriladi. Ularning farqi faqat ma'noli komponentda ko'rinadi — tarbiyalashda ular insonning shaxsiy sohalarini shakllantirish yoki rivojlantirishga, o'qitishda esa — asosan bilim, zehn va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'qitish uslublari, shakllardan farqli ravishda texnologik tomonni ochib beradi va ta'limiy o'zaro ta'sirni amalga oshirishning yanada umumiy usullarining (usullari va ular bilan bog'liq vositalar) yig'indisidan iborat.

O'qitish usullari (ba'zan — tarbiyaviy usullar) o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarining aniq bajariladigan amallari sifatida qaraladi va ulardan foydalanish maqsadi bilan izohlanadi. Pedagogik adabiyotda ular ko'pincha ta'limiy

o`zaro ta'sir ko`rsatishning eng kichik tuzilmaviy birligi, oddiy pedagogik masalalarni hal etishga yo`naltirilgan hatti-harakatlarning davri sifatida talqin etiladi. Bunda aynan o`sha usullar o`qitishning turli uslublarida amalga oshirilishi mumkin.

O`qitish vositalari — bu pedagogik usul bo`lib, o`qitishning muayyan uslubi doirasida amalga oshirilishini ta'minlaydigan, o`quvchining shaxsiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishning nisbatan mustaqil manbalaridir. Ularga turli predmetlar (darsliklar, kompyuterlar), ma'naviy va moddiy madaniyat asarlari va hodisalari (san'at, ijtimoiy hayot) va boshqalar kiritiladi.

Axborot texnologiyalarining ko`rib chiqilgan pedagogik vositalaridan har biri ularning aniq bir tomonini aks ettiradi. Shu vaqtning o`zida pedagogik nazariya va amaliyotda o`qitish usullariga yanada ahamiyat beriladi. Pedagog kundalik ta'lim berish faoliyatida u qanday uslubdan foydalanayotganligi to`g`risida o`ylamasligi ham mumkin. Biroq murakkab vaziyatda o`qitishning asosli yo`nalishini tanlash muammosi oldida turgan holda, u mazkur o`quv masalaning ehtimolli qarorlarining belgilangan yig`indisini bilishga ehtiyoj sezadi. Mana nima uchun o`qitish uslublarini u yoki bu darajada tizimlashtirish to`g`risidagi mavjud tasavvurlar pedagogning o`quvchi bilan bevosita o`zaro ta'sir ko`rsatishi to`g`risidagi shart-sharoitlardan kelib chiqadi. Buning natijasida o`qitish uslublarining ikki turini ajratib ko`rsatish mumkin: pedagogik va psixologik.

O`qitishning pedagogik (ba'zan — an'anaviy) uslublari o`quvchining ongiga ta'sir ko`rsatishni ko`zda tutadi. Ularning tasniflanishiga ko`ra o`qitish uslublari ta'lim jarayonidagi o`rniga bog`liq holda uch guruhga ajratilgan: shaxsning ongini shakllantirish uslublari, faoliyatni tashkil etish uslublari va faoliyatni rag`batlantirish uslublari.

Birinchi guruhni ajratish ong va xulq-atvorning umumiyliigi tamoyiliga asoslangan. Ong bilim, dunyo to`qrisidagi tasavvurlarning yig`indisi sifatida xulq-atvorni belgilaydi va bir vaqtning o`zida unda shakllanadi. Uslublarning ikkinchi guruhi shaxsning faoliyatda shakllanishi to`qrisidagi tezis asosida ajratib ko`rsatilgan.

Uchinchi guruh faoliyatni iste'mol-motivatsiya komponentini aks ettiradi: hatti-harakatning ma'qullanishi yoki qoralanishi xulq-atvorni shakllantiradi.

Ta'limda axborot texnologiyasi — oldinga qo'yilgan ta'limiy maqsadlarga erishishga imkon beradigan, nazariy asoslangan ta'lim jarayonini amalga oshirishning shakllari, uslublari, usullari va vositalarining yig'indisidir. Bunda u tegishli ilmiy modellashtirishga (loyihalashtirishga) tayanadi, bu jarayonda ushbu maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini uni rivojlantirishning muayyan bosqichida ob'ektiv ravishda bosqichma-bosqich o'lchash va baholash imkoniyati saqlanadi.

“Axborot texnologiyasi” har qanday pedagogik tizimda — ilmiy masalalar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan tushunchadir. Biroq, agar ilmiy masala o'qitish va tarbiya qilish maqsadlarini ifodalaydigan bo'lsa, u holda axborot texnologiyasi o'qitish va tarbiyalash yo'llari, ulargan erishish vositalarini ifodalaydi. Bu jarayonda ilmiy masala tuzilmasida talabalarning shakllantirilishi va rivojlantirilishi lozim bo'lgan aniqlangan sifatleri muayyan shart-sharoitlarda o'qitish maqsadlari sifatida ishtirok etadi, u esa umumiy holda ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatini belgilaydi.

Ta'limda axborot texnologiyalarini tashkil etish va amalga oshirish maqsadida faoliyat yuritish algoritmining umumlashgan chizmasidan foydalanish mumkin.

U o'qitish va tarbiya qilishning bir nechta bosqichlarini o'z ichiga oladi: mo'ljal olish (ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish); amalga oshirish (o'qitish-tarbiyalash uslublari, usullari va vositalarini ko'zda tutilgan ketma-ketlikda amalga oshirish); nazorat qilish va tuzatish.

Har bir axborot texnologiyada, shuningdek, qo'yilgan maqsadga erishish uchun uning faoliyat yuritishini kuzatish, nazorat qilish va tuzatish qoidalari tizimidan iborat bo'lgan boshqarish algoritmidan foydalaniladi. Belgilangan o'qitish-tarbiyalash maqsadlarining har biriga erishish uchun pedagoglarning qat'iy belgilangan o'quv-tarbiyaviy faoliyatini boshqarish algoritmidan foydalaniladi. Bu nafaqat o'qitish-tarbiyalash jarayonining muvaffaqiyatlilikini baholash, balki

belgilangan samaradorlikka ega bo'lgan jarayonlarni oldindan loyihalashtirish imkonini beradi.

Ta'limiy o'zaro ta'sir ko'rsatish uslublari, usullari va vositalarini saralash va oqilona tanlab olish axborot texnologiyasining o'ziga xos vazifasi sifatida ishtirok etadi. Aynan ular ulardan har birining o'ziga xos xususiyatini belgilashda hamda pedagogik faoliyatning mavjud shart-sharoitlari, pedagogning shaxsiy o'ziga xos xususiyatlari va uning pedagogik tajribasini aks ettirishlari lozim.

O'quvchining shaxsiy xususiyatlarini yoritish va aniqlash (tashxis) masalasi axborot texnologiyasining yanada mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarda o'quv-tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida shaxsning ruhiy (psixologik) tuzilmasi uchun (masalan, psixik jarayonlar, ta'lim olish va xususiyatlar) tanlangan kontseptsiyadan foydalanish mumkin. Biroq, sifatlarning o'zini bir qator shart-sharoitlarga muvofiq kelishi lozim bo'lgan tegishli aniqlash (tashxis) tushunchalarida izohlab berish (interpretatsiya qilish) zarur [20,48].

Ulardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

- muayyan sifatning boshqalardan aniq farqlanishini ta'minlaydigan bir ma'noli aniqlik;
- aniqlash (tashxis) jarayonida baholanadigan sifatni aniqlash uchun tegishli vositalarning mavjudligi;
- shaxsiy fazilat o'lchovlarining ishonchli shkalasi bo'yicha shakllanganlik va sifatlarning turli darajalarini aniqlash imkoniyatlari.

Ta'limda axborot texnologiyasi mohiyatini tushunishning bayon etilgan umumiy yondashuvi uning etarli darajada murakkabligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. U pedagogik amaliyotda shunday kutilmagan natijalarga ega bo'ladiki, butun tarbiyalash jarayoniga yangi sifatlarni berish to'g'risida so'z ochishga imkoniyat beradi.

1. Ta'limda o'qitish-tarbiyalash muayyan texnologiyani amalga oshirish shart-sharoitlarida yaxlit xususiyatga ega bo'ladi. Uni alohida o'quv yoki tarbiyaviy bolimlarga ajratish, alohida usullar yig'indisi yoki bir-biri bilan o'zaro bog'liq bylmagan shaxsiy xususiyatlar va sifatlarning ketma-ket shakllantirilishi

ko`rinishida amalga oshirish murakkabdir. Muayyan texnologiya doirasidagi o`qitish-tarbiyalash kompleks xususiyatlarga ega.

2. Birinchisini hisobga olgan holda, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatga faqat maxsus texnologik yondashuvlarni joriy etish puxta o`ylangan holda hal etilishi lozim.

3. Muayyan axborot texnologiyasida barcha foydalanuvchilar uchun hamma tomonlama va uyg`un rivojlangan shaxsni shakllantirish yo`lida o`tish lozim bo`lgan umumiy bosqichlar mavjud.

Pedagogik jarayonlarni texnologiyalashtirish, ularga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish g`oyasi ularni boshqariladigan qilish: "bir narsaga va qandaydir" qilib emas, balki kafolatlangan muvaffaqiyat bilan erishishdan iborat. Asosiy g`oyaga ko`ra, har qanday darajadagi o`qituvchi uning maqsaddan boshlab to natijalarni baholashgacha bo`lgan hatti-harakatlarini belgilaydigan o`quv materiallarini texnologik qayta ishlash asosida berilgan natijalarga erishadi. Boshqa bir tomondan, inson omilining pedagogik jarayonda mavjudligi texnologik hisob-kitobni murakkablashtiradi. Texnologiya muxoliflarining aytishlaricha, o`qitish, bundan tashqari tarbiyalashni shaxssiz, munosabatlarsiz, his-tuyg`ularsiz amalga oshirib bo`lmaydi. Tabiiyki, ilm-fan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda texnologiyalashtirish va shaxs y`rtasidagi qarama-qarshilikni hal etish yo`llarini qidiradi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayon tushunchasi o`qitish va tarbiyaviy texnologiyalar tushunchalari bilan bir qatorda uslubiy bilimlar qatoriga kiradi, yoki uning ilmiy tahlili va amaliy tashkil etilishida ta'limiy tizimlar, qonuniylik, pedagogikada tizimli va texnologik yondashuvlar to`g`risidagi bilimlar birlashtiriladi.

Umumiy til ma'nosida jarayon bir holatda holatlarning ketma-ket almashinishini, biror narsaning rivojlanib borishini ifodalasa, boshqa bir holatda esa muayyan natijaga erishish uchun yo`naltirilgan ketma-ket hatti-harakatlarning yig`indisini bildiradi. Ikkita ma'no ham ta'lim-tarbiya jarayonini pedagog va o`quvchilarning muayyan axborot texnologiyasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarida o`qitish maqsadlariga erishish uchun yo`naltirilgan tashkiliy o`zaro munosabatlari sifatida

tushunish uchun asos beradi. Bu erda ko`rinib turganidek, ta'lim berish ketma-ket pedagogik hatti-harakatlarning yiqg`indisi sifatida qaraladi, pedagogik texnologiya doirasida amalga oshiriladi hamda o`quvchining ijobiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadiga ega bo`lgan tashkiliy faoliyatdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonining eng asosiy xususiyatlari — bu uning yaxlitligi, tizimlilik, davriyligi va texnologiyaviyligidir. Yaxlitlik deganda tarbiyalash va o`qitish jarayonlari, shuningdek shaxsni rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarining ajralmas birligi tushuniladi. Tarbiyalash va o`qitish, garchi ilm-fan ularni farqlasada, bir-biriga bog`liq va ko`p umumiylikka ega. O`qitishning mazmunini asosan dunyo haqidagi ilmiy bilimlar tashkil etadi. Tarbiyaning mazmunida me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar ustunlik qiladi.

O`qitish asosan aql-idrokka ta'sir ko`rsatadi, tarbiyalash birinchi navbatda shaxsning iste'mol-daliliy sohasiga aylangan. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq-atvoriga ta'sir ko`rsatadi va uning rivojlanishiga olib keladi. qanchalik yaqin bo`lishiga qaramay, bu o`ziga xos jarayonlar bo`lib, ilm-fan ularni tarbiya qilish nazariyasida va didaktikada alohida ko`rib chiqadi. Bunda zamonaviy shart-sharoitlarda uslubiy tamoyil va ayniqsa dolzarb hisoblangan butun pedagogik jarayonning yaxlitligi ta'minlanadi.

Ta'lim jarayoni va tarbiyaviy tizim ham umumiylikni tashkil etadi, chunki jarayonlar tizimlarning xususiyatlaridan iborat. Aytish mumkinki, ta'lim jarayonlari — bu tarbiyaviy tizim holatlarining ketma-ket almashinuvidir.

Ta'lim jarayonini tizimli ravishda ko`rib chiqish tizim va jarayonning tuzilmasini, shuningdek ular o`rtasidagi aloqalarni ajratib ko`rsatilishini ifodalaydi. Bu har birining o`ziga xos xususiyati, mohiyatini, birining boshqasiga ta'siri natijasida o`zgarishini anglab etishga yordam beradi. Masalan, o`qitish maqsadi uning mazmunini belgilab beradi, o`zlashtirganlik darajasi esa o`qitish usullarini tanlashga ta'sir ko`rsatadi va h.k.

Pedagogik jarayonning tuzilishi — bu pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadlariga muvofiq bo`lgan uning tarkibiy qismlarining yig`indisidir. Buning natijasida uning tuzilmasi qatoriga quyidagilar kiritilgan:

- maqsadli — o`qitish-tarbiyalash maqsadlarini belgilash;
- mazmunli — o`qitish-tarbiyalash mazmunini ishlab chiqish;
- faoliyatli — jarayon ishtirokchilarini o`qitish-tarbiyalash va o`zaro munosabatda bo`lish tartibotlari;
- baholash-natijaviy, o`qitish-tarbiyalashning samaradorligini baholash va tahlil qilish.

Pedagogik faoliyat ham tarbiyaviy jarayonning tuzilmasiga muvofiq quriladi: faoliyatning maqsadlari, mazmuni, usullari va turlari ishlab chiqiladi va natijalar tahlil qilinadi. O`qitish-tarbiyalash maqsadlarini aniqlash pedagogik aniqlashni (tashxis) — ta'lim jarayoni holati, birinchi navbatda o`quvchilarning o`zlashtirganliklari, shuningdek jarayonning boshqa shartlarini o`rganishni talab etadi. Ta'lim jarayoni bosqichlarining o`zaro munosabati va ketma-ketligi to`g`risida xulosa chiqarishga imkoniyat beradi: aniqlash (tashxis) — loyihalashtirish — amalga oshirish — ta'limiy o`zaro ta'sirning yangi darajasini aniqlash (tashxis).

II Bob. O`quv jarayonini tashkil etishda axborot texnologiyarni joriy etishning metodik asoslari.

2.1. Geografiya fanini o`qitishda axborot texnologiyalarni tutgan o`rni.

O`qitish nazariyasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim paradigmasini o`zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarigina yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish to`g`risida” gi hamda “O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta'limni tashkil etish to`g`risida” gi qaroriga asosan mamlakatimizda umumiy ta'limni qayta ko`rib chiqish va isloq qilish borasida ko`pgina samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan barcha fanlar, shu qatori geografiya fani bo`yicha ham yangi dasturlar tuzilib ularga muvofiq yangi va jahon standartlariga javob beradigan darsliklar yaratib kelinmoqda. Geografiya fanlarini o`qitishda o`quvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan umumiy darsliklar bilan bir qatorda alohida sinflar uchun hamda lisey va kasb-hunar kollejlari o`quvchilariga mo`ljallangan darsliklarining o`rni beqiyosdir. Alohida sinflar uchun hamda lisey va kasb-hunar kollejlari o`quvchilariga mo`ljallangan darsliklarining roli haqida ma'lumotlar berish o`quvchilarni o`rganilayotgan hududning geografik o`rni, geologic tuzilishi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o`simlik va hayvonot dunyosi, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayoti va o`ziga xos xususiyatlarini to`liq anglab etishi hamda uning geografik tarixiy tafakkurini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa geografiya fanining oldida turgan bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

O`quvchiga mavzuni tushuntirish, darsni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish va samaradorligini oshirishda o`qituvchining o`rni beqiyosdir. Yangilanayotgan pedagogik tafakkur talablariga ko`ra zamonaviy dars o`quv muassasasining mulkiy mansubligidan qat'iy nazar quyidagi xususiyatlarga ega bo`lishi lozim: ta'limning

tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilganligi, o'quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilganligi, ilmiyligi va izchilligi, tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlashga qaratilganligi, insonparvarlik yo'nalishiga egaligi, tizimliliigi, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilganligi, amaliy ahamiyatga ega ekanligi va h.k.

Umumta'lim maktablari, o'rta maxsus bilim yurtlari hamda liseylarda geografiya fanlarini o'qitish metodlari jadal suratlar bilan rivojlantirilib borilayotgan bir vaqtda, o'quvchilarga darsni ham o'quvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan umumiy darsliklar bilan bir qatorda alohida sinflar uchun hamda lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljallangan darsliklar, hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borishni tashkil qilish shakllarini ishlab chiqish bugungi kun uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Zero, o'rganilayotgan hudud haqida ma'lumot beruvchi birlamchi hamda birinchi darajali maxsus darsliklar bilan ishlash salohiyatini shakllantirgan holda o'quvchi tafakkurida mamlakat taraqqiyoti va ertangi kuni uchun muxim bo'lgan geografiya fanlarining to'laqonli obrazini yaratish mumkin.

Bu esa o'qituvchidan har tomonlama mukammal bilim bilan birgalikda o'ziga xos qobiliyat – maxsus fanlar bo'yicha alohida bilim va pedagogik malakani talab etadi.

O'qituvchi o'quv jarayoniga kirib borar ekan undagi pedagogik va psixologik bilimlar miqdori, dars berish metodikasi va texnologiyasini egallaganlik darajasi uning ilmiy tajribasidan ham birinchi o'rinda turishini inobatga olish lozim.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan bir davrda buyuk kelajak sari qadam tashlanar ekan, yoshlarni yagona milliy g'oya, milliy mafkura atrofida birlashtirish, tarbiyalash zaruriyati tug'ildi.

Zero O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi" – ayni vaqtda tarixiy-madaniy merosni tiklash - "milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga

qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon” dir. Bu vazifalarni ado etishda esa turli ta'lim muassasalarining o`rni beqiyosdir.

Mustaqillik yillarida o`zbek xalqining millatparvar, xalqparvar, ma'rifatparvar vakillarining ezgu niyatlari amalga oshmoqda. Mamlakat hayotidagi bunday real o`zgarishlar o`z navbatida xalqning an'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyatini bugungi kun nuqtai-nazaridan qarab, chuqur va ilmiy asosda izchil o`rganishni taqozo etmoqda. Mustaqil davlat sifatida huquqiy - demokratik jamiyat qurilar ekan avvalambor yosh kadrlarni har tomonlama rivojlantirish, ularda Vatanga, Ona yurtga sadoqat, milliy istiqlol g`oyasi hamda xalq qadiryatlariga xurmat g`oyalarini shakllantirish, o`quvchilar tarbiyasida milliy mafkuraning rolini asos sifatida rivojlantirish zarurdir.

2.2 Geografiya fanlarini o`qitishda pedagogik texnologiyalarni tutgan o`rni

Geografiya fanlari juda boy va muhim fanlardan biri hisoblansada, uni geografik kartalarsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Shuning uchun ham dars jarayonida mavzuni geografik kartalar asosida o`rganish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etib olib borilgan geografiya fanlari o`zining ko`pqirraliyli va bir-birini takrorlamaydigan o`ziga xos jixatlari bilan an'anaviy darslardan ajralib turadi.

Bunda esa yuqorida ta'kidlab o`tilganidek o`qituvchining pedagogik maxorati, o`ziga xos uslubi va fan metodikasi asosiy o`rin egallaydi.

Ta'lim mazmunining sifatini takomillashtirish pedagogikadagi bugungi kunda yangi pedagogik innovatsiya yo`nalishisiz mumkin emas. Umumta`lim maktablari, o`rta maxsus ta'lim tizimida innovatsion jarayonlar, innovatsion xususiyati yangiliklarini kiritish, o`qituvchilar kasbiy imkoniyatlari bilan belgilanadi.

O`qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, albatta bunda birinchi navbatta fan, mavzu, o`quvchilar yoshi, kasbiy yo`nalitirilganligi va shu kabi bir necha jihatlarga ahamiyat berishi lozim. Geografiya faniga yo`naltirilgan umumta`lim maktablari, o`rta maxsus ta'lim muassasalarida darsni olib borish metodi boshqa muassasalarnikidan tubdan farq qiladi. Ya'ni o`quvchilarga geografiya fanlari nafaqat yaxlit, bir predmet balki, uning har bir jixati kartalar (yozuvsiz) asosida alohida bir kurs sifatida ham o`qitiladi.

Geografiya fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan olib borish bugungi kunda o`zini oqlagan metodlardan biri bo`lib hisoblanadi.

Zero, zamonaviy pedagogik texnologiya o`ziga xos va potentsiyal yaratilgan pedagogik natijalarga erishish uchun, pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi

Umumta`lim maktablari, o`rta maxsus ta'lim tizimida ham o`qituvchi ham o`qituvchini o`z ustida ishlashga qiziqtiruvchi, harakatini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi texnologiyalardan biri o`yinli texnologiyalar hisoblanadi.

S.A.Shmakov fikricha o`yinli texnologiyalar nafaqat natijaga erishish, balki xoxishga ko`ra faoliyat jarayonining o`zidan zavqlanish uchun qo`llaniladi.

“Mening yangiligim” texnologiyasi.

Bu usuldan mustaqil tanishish uchun uyga vazifa sifatida topshirilgan mavzular yuzasidan o`quvchilar fikrini aniqlash hamda baholashda foydalanish mumkin.

Bu texnologiyada o`quvchilar individual – yakka holda harakat qiladilar.


Buning uchun o`quvchilarga quyida keltirilgan misolidagi tarqatma material tarqatiladi (1-jadval).

Texnologiya bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

1. o`quvchi o`qituvchining ko`rsatmasi bilan A katakka o`zi mustaqil ravishda tanishib chiqqan istagan bir yozma mavzuning nomini yozadi. Masalan: Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi.

2. qolgan ya'ni B., V., G., D., kataklarga mavzuga ta'rif, ya'ni yozma mavzu bilan tanishib chiqishi jarayonida o`quvchida taassurot qoldirgan o`ziga xoslik yoziladi. Masalan: B) qo`llamada keltirilgan geografik nomlar termini va atamalarning yozilishi toponimika fanining jadal rivoji guvohidir; V) geografik nomlar termini va atamalarning xalq maqollari sifatida yozilishi va qo`shiq qilib aytiladigan she'rlar muallif tomonidan mustaqil yozilgan; G) daryo va ko`llarning bayoni hozirgi kun uchun ham dolzrab; D) O`rta Osiyo tabiatini geografik o`rganish tarixi asarini o`rganish eng muhim geografik qo`llanma.

Ushbu usul vaqtni tejash bilan birgalikda omma oldida nutq so`zlashdan qo`rqadigan, tortinchoq o`quvchilarni ham baholashga, ularning fikrlash doirasi hamda qobiliyatini tekshirishda yordam beradi. Usulning o`ziga xosligi: o`qituvchi uy vazifalarni darsdan so`ng tekshirishi mumkin. Bunda barcha o`quvchilar 100 % baholanadilar.



Fikrlash navbati texnologiyasi.

Mavzu yuzasidan axborotni qisqacha bayon qilish, vaqtni tejash, har bir o`quvchiga yozma mavzu yuzasidan mavjud fikrini mustaqil bayon qilishi uchun sharoit yaratish, mavjud bilim va ko`nikmalarni oldindan tekshirib chiqish borasida ushbu usul muhim malaka hisoblanadi. Ushbu texnologiyani o`tkazish o`qituvchidan tezlik, izchillik, tizimlilik, zukkolik, e'tiborlilikni talab qiladi. O`quvchilarga raqamlar yozilgan kartochkalar tartibsiz tarqatiladi (2-jadval).

Sinf xonasi.					
1-qator		2-qator		3-qator	
1	8	15	5	12	3
19	13	21	11	17	20
10	22	2	18	23	9
16	4	24	7	6	14

2-jadval.

O`qituvchi sinf doskasiga texnologiya mavzusini yozadi.

Masalan: “Bobirnoma” haqida mening fikrim. Har bir o`quvchi taklif (fikir bildirish) soni bo`yicha navbati bilan o`z fikrini bildiriradi.

Masalan:

“Bobirnoma” muhim terminologik va toponimik haqida muhim manba;

“Bobirnoma” asarida Bobirning davlat boshqaruvi to`g`risida ko`p donno fikrlar berilgan;

“Bobirnoma” asarining geografiya, botanika, zoologiya, astronomiya, etnografiya fanlarini o`rganishda ahamiyati katta...

har bir fikrga qolgan o`quvchilar tomonidan 1-5 ballgacha baho qo`yiladi. Eng so`nggida yuqori ballga ega o`quvchilar fikri muhokama qilinadi va ular ijobiy bahoga ega bo`ladilar.

FSMU texnologiyasi.

Bu texnologiyadan asosan o`quvchilarga tanish bo`lgan (bir necha kun avval manba sifatida o`qitilgan) mavzuni takrorlash va u to`g`risidagi fikrlarni umumlashtirish uchun foydalanish mumkin. Bu texnologiyada o`quvchilar individual – yakka holda harakat qiladilar. Buning uchun o`quvchilarga quyida keltirilgan misolidagi tarqatma material tarqatiladi (3-jadval).

<u>F</u> ikr		
<u>S</u>abab		
<u>M</u>isol		
<u>U</u> mumlashtirish		

3-jadval.

O`quvchilarga o`qituvchi tomonidan umumiy mavzu beriladi.

Masalan: Mavzu: Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» asari muhim geografik manba.

O`qituvchi ko`rsatmasi bilan har bir o`quvchi yakka tarzda jadvalni to`ldira boshlaydi. Oquvchilar yoshini va aqliy imkoniyatlarini inobatga olgan holda jadvalning har bir qatori alohida-alohida tushuntirib o`tiladi.

Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» asari haqida mening fikrim. Har bir o`quvchi taklif (fikir bildirish) soni bo`yicha navbati bilan o`z fikrini bildiriradi.

Masalan:

Fikir (o`quvchining manba haqidagi yaxlit fikri) – ushbu asar O`rta Osiyo tabiatini geografik o`rganish tarixini o`rganishda muhim manbadir;

Sabab (Yuqoridagi fikrga izoh) – Asarda O`rta Osiyo va uning tabiati haqidagi eng qadimgi geografik tasavvurlar-ibtidoiy, antik, ilk o`rta asarlar, Mo`g`illar, Temuriylar, Shayboniylar, XVII-XX asr boshlaridagi rivojlanish, sovet davri va hozir kunning tabiati, aholisi hayoti, olimlar tomonidan qilingan ishlar, yozilgan asarlar hamda shu kabi ko`p ma'lumotlar keltirib o`tilgan;

Misol (yuqoridagi fikrlarni isbotlovchi misol) – Asarda O`rta Osiyo tabiatini o`rganishga hissa qo`shgan rus, o`zbek va boshqa millat vakillarining ilmiy ishlari haqida ma'lumotlar berilgan;

Umumlashtirish– Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» asari qo`lyozmasi arabchada hijriy 428 yil ramazon oyi (milodi 1037 yil iyun-iyul) oyida ko`chirilgan bo`lib, jami 48 varaq (96 sahifa) dan iborat bo`lib, bu vaqtda olim endigina 27 yosh edi. Ushbu asar muhim geografik manbadir.

Texnologiya natijasi yozma yoki og`zaki tartibda tekshirilishi mumkin. Texnologiyaning o`ziga xosligi: o`quvchilar o`rtasida musobaqalashish ruhiyatini shakllantirish, shaxsning o`zini himoya qila olishi, o`z imkoniyatlarini amalga oshirish extiyojlarini qondirishni shakllantirishga yordam beradi.

BLIS o`yin texnologiyasi.

Ushbu texnologiya mavzuga doir o`rganilgan manba haqidagi ma'lumot hamda fikrlarni tekshirish bilan birga, o`quvchini guruhda ishlash qobiliyatini o`stirish, jamoada o`zini ko`rsata olish hamda o`z fikrini himoya olish xususiyatlarini shakllantirishda ham ahamiyatlidir. Sinf xonasi texnologiya uchun maxsus tayyorlanadi. Ya'ni sinf jixozlari o`quvchilar guruhlariga bo`linib ishlashi jarayoni – o`zaro muloqotda, fikr almashishda ularga qulay tarzda joylashtiriladi.

O`quvchilar guruhlariga bo`lib olinadi: qutiga guruhlar sonidan kelib chiqqan holda kitob nomlari yozilgan kartochkalar solib qo`yiladi. har bir o`quvchi bittadan kartochka oladi va o`quvchilar o`z guruhlari bo`yicha maxsus belgilangan stol atrofida jamlanadilar. O`quvchilarning har biriga 4-jadvalda keltirilgan (harakatlar mazmuni o`rni almashtirilgan holda oldindan yozib qo`yilgan) jadval tarqatib chiqiladi.

Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» asarining o`rganilishi.

Yakka baho.	Yakka hatosi.	To`g`ri javob.	Guruh bahosi.	Guruh hatosi.	Harakatlar mazmuni.
					Avstriyalik sharqshunos Gans Mjik Al-Xorazmiyning geografik asari-« Kitob surat al-arz » ning sodda arabcha va forsha tilida yozilganligini qayt qiladi. Bu misol ham Al-Xorazmiyning aslida arab emasligini, Bog`dodga keyinroq borib qolganligining yana bir isbotidir.
					Al-Xorazmiy tug`ilganligining 1200 yilligi yubileyi arafasida « Kitob surat al-arz » asari A. Axmedov tomonidan o`zbek va rus tillariga tarjima qilindi.
					Al-Xorazmiyning geografik merosi bilan Avstriyalik sharqshunos Gans Mjik ko`p yillar davomida shug`llanib, 1926 yilda asarning arabcha nusxasi chop etildi.
					Hozirgi vaqtda Al-Xorazmiyning geografik asari-« Kitob surat al-arz » ning faqat birtta qo`lyozmasi bor. Qo`lyozma 1878 yilda Qohirada topildi. Qohira kutubxonasi boshlig`I nemis arabshunos olimi V. Spitta qo`lyozmani shu yilning o`zida Evropaga olib o`tdi va Strasburg kutubxonasiga topshiradi.
					Al-Xorazmiyning geografik asari-« Kitob surat al-arz » haqida buyuk

					sharqshunos olimlar V.V. Bartol'd va I.Yu. Krachkovskiy asarlarida batafsil ilmiy axboratlar berilgan.
--	--	--	--	--	--

4-jadval

Texnologiya uch etapda olib boriladi:

1-bosqich: har bir o`quvchi individual – yakka xolda ishlaydi ya'ni “yakka baho” katagiga manbaga doir o`rinlari almashgan tarixiy harakatlarni navbuti bilan raqamlab chiqadi;

2-bosqich: o`quvchilar 3-5 kishidan iborat guruhlariga bo`linadi va yuqoridagi masala bo`yicha guruh muhokamasi boshlanadi. Tarixiy harakatlar xronologik to`g`ri raqamlanib, “guruh bahosi” katagi tuldirladi;

3-bosqich: o`qituvchi tomonidan to`g`ri javoblar o`qiladi hamda to`g`ri javob katagi to`ldiriladi. (5-jadval).

Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» asarining o`rganilishi.					
Yakka baho.	Yakka hatosi.	To`g`ri javob.	Guruh bahosi.	Guruh hatosi.	Harakatlar mazmuni.
1-bosqich		3-bosqich	2-bosqich		Avstriyalik sharqshunos Gans Mjik Al-Xorazmiyning geografik asari-« Kitob surat al-arz » ning sodda arabcha va forsha tilida yozilganligini qayt qiladi. Bu misol ham Al-Xorazmiyning aslida arab emasligini, Bog`dodga keyinroq borib qolganligining yana bir isbotidir.
1-bosqich		3-bosqich	2-bosqich		Al-Xorazmiy tug`ilganligining 1200 yilligi yubileyi arafasida « Kitob surat al-

					arz ” asari A. Axmedov tomonidan o`zbek va rus tillariga tarjima qilindi.
1- bosqich		3- bosqich	2- bosqich		Al-Xorazmiyning geografik merosi bilan Avstriyalik sharqshunos Gans Mjik ko`p yillar davomida shug`illanib, 1926 yilda asarning arabcha nusxasi chop etildi.
1- bosqich		3- bosqich	2- bosqich		Hozirgi vaqtda Al-Xorazmiyning geografik asari-« Kitob surat al-arz ” ning faqat birta qo`lyozmasi bor. Qo`lyozma 1878 yilda Qohirada topildi. Qohira kutubxonasi boshlig`I nemis arabshunos olimi V. Spitta qo`lyozmani shu yilning o`zida Evropaga olib o`tdi va Strasburg kutubxonasiga topshiradi.
1- bosqich		3- bosqich	2- bosqich		Al-Xorazmiyning geografik asari-« Kitob surat al-arz ” haqida buyuk sharqshunos olimlar V.V. Bartol'd va I.Yu. Krachkovskiy asarlarida batafsil ilmiy axboratlar berilgan.

5-jadval

4-bosqich: “yakka xato” va “guruh xatosi” belgilanadi. Ya'ni to`g`ri javobdan avval yakka xato, so`ng guruh xatosi ayriladi. (6-jadval).

Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» asarining o`rganilishi.

Yakka baho. (misol)	Yakka xato.	To`g`r i javob.	Guruh bahosi. (misol)	Guruh xatosi.	Harakatlar mazmuni.	O`qituvchi uchun
1	2	3	1	4	Avstriyalik sharqshunos Gans Mjik Al-Xorazmiyning geografik asari-« Kitob surat al-arz » ning sodda arabcha va forscha tilida yozilganligini qayt qiladi. Bu misol ham Al-Xorazmiyning aslida arab emasligini, Bog`dodga keyinroq borib qolganligining yana bir isbotidir.	1878 йил
2	3	5	2	3	Al-Xorazmiy tug`ilganligining 1200 yilligi yubileyi arafasida « Kitob surat al-arz » asari A. Axmedov tomonidan o`zbek va rus tillariga tarjima qilindi	1983 йил
3	2	1	4	5	Al-Xorazmiyning geografik merosi bilan Avstriyalik sharqshunos Gans Mjik ko`p yillar davomida shug`illanib, 1926 yilda asarning arabcha nusxasi chop etildi.	1878-1879 йил
4	2	2	0	2	Hozirgi vaqtda Al-Xorazmiyning geografik asari-« Kitob surat al-arz » ning faqat birta qo`lyozmasi bor. Qo`lyozma 1878 yilda Qohirada topildi. Qohira kutubxonasi boshlig`I	1879 йил

					nemis arabshunos olimi V. Spitta qo`lyozmani shu yilning o`zida Evropaga olib o`tdi va Strasburg kutubxonasiga topshiradi.	
5	1	4	3	1	Al-Xorazmiyning geografik asari-« Kitob surat al-arz » haqida buyuk sharqshunos olimlar V.V. Bartoʻld va I.Yu. Krachkovskiy asarlarida batafsil ilmiy axborotlar berilgan.	1961 йил
	10		10		Jami.	

6-jadval

Javob 10:10. Demak ushbu ishtirokchi muammoni qanday yakka holda echsa, jamoada ham o`z fikrini o`tkaza oladi. U jamoada kerakli inson va fikr qabul qiluvchi bo`lishi ham mumkin. (agar yakka baho guruh bahosidan yuqori bo`lsa, demak Ushbu inson jamoada ishlashga o`rganishi lozim. Agar natija bunnig teskarisi bo`lsa, demak ushbu inson asosan jamoada ishlashga mayil. Bir o`zi qaror qabul qilishi qiyin).

Eng kam xato qilgan o`quvchi va guruh qolib deb topiladi va ijobiy baholanadi. O`quvchilarni mavzu yuzasidan o`qituvchi darsdan so`ng jadvallarni tekshirib baholashi mumkin.

Klaster usuli.


Bu texnologiya uslub jihatdan aqliy xujum tenologiyasiga yaqin bo`lib, asosan o`quvchilarning o`tilayotgan mavzu bo`yicha mavjud bilim va ko`nikmalarini tekshirishda ishlatiladi. U faqat g`oyalar orasidagi bog`lanishlarni fikrlashni ta'minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. Bu usul o`quvchini mavzu yuzasidan mavjud bilimlarini tizimlashtirish va uni tasavvur

qilishga yordam beradigan strategiya hisoblanadi. Bu texnologiyadan yakka holda yoki jamoada ham foydalanish mumkin.

Jamoada klaster usulidan foydalanish. O`quvchi tomonidan doska markaziga mavzuning asosiy mavzusi yoziladi. Masalan: Afrika materigining daryo va ko`llari. O`quvchilardan mana shu mavzu bilan bog`liq bo`lgan fikrlarini aytishlarini so`raladi hamda doskaga o`quvchilar fikrlari tahlilsiz yozilib strelka yordamida asosiy mavzu bilan bog`lanadi (7-jadval). Fikrlarga texnologiya so`ngida o`qituvchi tomonidan xulosa yasaladi. Usulning o`ziga xosligi shundaki, bunda o`quvchilar boshqa tengdoshlari fikrlari bilan ham tanisha oladilar.

KLASTER METODI.

7-jadval.



Asarlarni o`rganishda jadvallardan foydalanish texnologiyalari. O`rganilayotgan asar yuzasidan o`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini tekshirishda grafik va jadvallardan foydalanish juda samarali hisoblanadi. Zero jadvallarni mustaqil tuzish va to`ldira olish o`quvchini tarixiy asar yuzasidan bilimi, fikri hamda shaxsiy qarashlarini qasqa ravishda mukammal ifodalay oladi.

Tabiiyki jadvallar o`quvchining yoshi hamda o`rganilayotgan mavzu doirasiga qarab tuziladi. Jadvallar tuzilish uslubiga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi. Quyida biz mavzu yuzasidan bilimlarni tekshirish uchun jadvallardan foydalanish metod va texnologiyalarining bir necha usullarini berib o`tamiz.

A) Jadvalning bu ko`rinishi oddiy ko`rinish bo`lib, bunda o`quvchi jadvalning barcha bo`limlarini o`zi mustaqil ravishda to`ldirib boradi. Jadvalning bu ko`rinishidan asosan umumiy nazorat tariqasida foydalanish mumkin.


	Asar nomi	Muallifi	Yozilgan yili	Yozilgan tili	Qisqacha ta`rifi	Mustaqil izoh.
	«Kitob surat al-arz»	Muhammad Muso al-Xorazmiy	1037 yil	Arab tili	Geografik nomlar, shaharlar birma-bir sanab o`tilgan, co`ngra tog`lar, dengiz va orollar, eng oxirida daryolar yozilgan. Koordinatlar, raqamlar jadval ko`rinishida yozilgan.	Ushbu asar Muhammad Muso al-Xorazmiy geografiyasini o`rganishda muhim geografik asa hisoblanadi.

B) Jadvalning bu ko`rinishi avvalgisiga nisbatan bir oz engilroq bo`lib, bunda jadvalni to`ldirishda o`quvchiga o`qituvchi tomonidan bir qancha qulayliklar (podskazka) yaratib berilgan bo`ladi.

№	Asar nomi	Muallifi	Yozilgan sanasi	O`ziga xosligi.
1	«Kitob surat al-arz»	Al-Xorazmiy	IX-X asarlar	
2		Narshaxiy		Ushbu asarga Narshaxiy nom bermagan. Adabiyotlarda bu asar «Narshaxiy tarixi», «Buxoro tarixi» kabi nomlar bilan keltirilgan.
3	«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»	Abu Rayhon Beruniy	X asr	
4	Xamca	Navoiy		
5	Geografiya	Klavdiy Ptolemey		

V) Jadvalning bu ko`rinishi o`quvchining mavzuni qay darajada eslay olishini tekshirish bilan birgalikda, o`quvchidan zukkolik va tezlik talab qiladi. Masalan. Barcha o`quvchilarga quyidagi kabi jadval tarqatiladi va eng tez to`ldirib bo`lgan o`quvchi ijobiy baholanadi.

Asarlar.	Yo`nalishlar.	Muallif.
«Kitob surat al-arz»		Navoiy
Buxoro tarixi		Klavdiy Ptolemey
Geografiya		Bobir
Xamsa		Al-Xorazmiy
Bobirnom		Narshaxiy



Umumta`lim maktablari, o`rta maxsus kasb-hunar kollejlari va geografiya fani o`quvchilarga mavzuni geografik misollar, manbalar yordamida tushuntirish, ularda geografik misollar, manbalar bilan ishlash ko`nikmasini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Chunki yozma geografik misollar, manbalar bilan o`tilgan dars o`quvchilarga o`sha zamon geografik tuzilishini singdirish, geografiy voqealarni

xolisona tahlil qilish ko`nikmalarini shakllantirishga yordam beradi va bir necha bosqichlarda bir necha dars davomida amalga oshiriladi:

1 – dars:

O`quvchilarning yoshiga mos yozma manba tanlanadi – Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari.

O`quvchilar soni inobatga olingani holda 5-6 kishidan iborat guruhlariga bo`linadi. Qutiga guruhlar sonidan kelib chiqqan holda gul (kitob, alloma, tarixiy shaxs va shu kabilar) nomlari yozilgan kartochkalar solib qo`yiladi. har bir o`quvchi bittadan kartochka oladi va o`quvchilar o`z guruhlari bo`yicha maxsus belgilangan stol atrofida jamlanadilar.

O`qituvchi tomonidan yozma manba rejaları asosida o`quvchilar yoshiga mos ravishda tuzilgan matnlar tarqatiladi. har bir guruh a'zosi mustaqil ravishda o`z mavzusidan kelib chiqqan holda tarqatilgan matndan foydalanib ijodiy bayon yozishi uyga vazifa qilib topshiriladi. –

Masalan:

a) «Boburnoma» asari Bobur hayoti va faoliyatini o`rganishda muhim manba. «Boburnoma» nodir tarixiy asar, qimmatli manbadir. Unda XV asrning oxiridan XVI asrning 30 yillarga qadar ro`y bergan. Tarixiy voqealar aks ettiriladi. Asar 1494 yil voqeasi tasviri bilan, Samarqand hukumdori Sulton Ahmad Mirzoning Farg`onaga hujumi, Umarshayx Mirzoning xalok bo`lishi va 12 yoshga qadam qo`ygan Boburning taxtga chiqishi bayoni bilan boshlanadi. Faktik materiallarning ko`pligi, boyligi, aniqligi va to`laligi, tarixiy voqealarning asosan beg`araz va rostgo`ylik bilan bayon etilishi, ifodaning soddaligi va ravonligi «Boburnoma» ning tarixiy manba sifatidagi afzalliklarni tashkil etadi. Bobur biror tarixiy voqeani hikoya qilishga kirishar ekan, ko`pincha, avval voqeaning o`rmini batafsil tasvirlaydi, voqeadada ishtirok etuvchi kishilarning aft basharasidan tortib fe'l – atvori va hatti-harakatiga qadar ta'riflaydi, so`ng voqeaning bayoniga kirishadi. Ba'zan voqea davomida chekinish qilib, joy yoki manzarani tasvirlaydi. Shu xilda kitobning XV - XVI asrlardagi Movaraunnahr, Xuroson, Avg`oniston va Hindiston o`lkalari, ularda o`nlab shahar va qishloqlarning manzarasi,

topografiyasi, ob-havosi, o`simliklar dunyosi, aholisi xalq va qabilalarning urf odati va boshqa –boshqa tomonlari mujassamlanadi.

«Boburnoma» avtorida bunday o`rinlarda iste'dodli adib va shoir sifatidagina emas, balki bilimdon va kuzatuvchan bir olim, geograf, tabiatshunos, etnograf, tilshunos, san'atshunos sifatida gavdalanadi. Muallif o`z asarida faqat voqealar bilan cheklanmaydi. Balki ularning ishtirokchilariga markaziy qahramonlariga ham keng o`rin beradi.

«Boburnoma» da bir necha yuz tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlari tasvir etiladi. Bular shoxlar, viloyat hokimlari, amir-amaldorlar, Askar boshliqlari, din va namoyondalari, askarlar, ilm-fan, san'at va adabiyot ahillari, dehqonlar, hunarmandlar, qullar va boshqa ijtimoiy guruhdagi lavozim va kasbkordagi kishilardir. Bobur ularning tasvirlanayotgan voqealardagi roliga qarab birlari haqida keng va batafsil so`zlaydi, ikkinchi birlari haqida qisqa ma'lumot beradi, boshqa birlarini biron munosabat bilan tilga oladi yoki eslab yitadi. U voqealarning rivojida muhimroq o`rin tutgan Umarshayx Mirzo, Xusayn Bayqaro, Sulton Ahmad Mirzo, Xisravshox kabi tarixiy shaxslarning faoliyati va sarguzashtlarini bayon etish bilan birga, ularning shakl – shamoyili, nasl-nasabi, ma'naviy qiyofasi, xislati, xulq-atvori, kishilarga munosabati, ma'daniy saviyasi va boshqa jihatlarni ham tasvirlaydi.

«Boburnoma» da ilm-fan, san'at va adabiyot ahillariga katta o`rin berilgan. Bobur Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Husayn Muammoniy, Shayxim Suhayli, Yusuf Badeniy, Ahmad Hojibek, Behzod, Sulton Ali, hoja Abdullo Marvoriy, Shoh Muzaffar, G`ulom Shodiy, Husayn Uddiy kabi bir qator shoirlar va san'tkorlar haqida ma'lumot beradi, ularni maqtaydi, asarlaridan namunalar keltiradi, ba'zan hayoti, faoliyati yoki shaxsiy sifatleri haqida qiziqarli faktlar so`zlaydi. «Boburnoma» bu kishilarning hayoti va faoliyatini o`rganishda, ularning madaniy hayotidagi o`rnini belgilashda juda ahamiyatlidir. Natijada biz Bobur zamonida yashagan va tariximiz, ma'naviyatimizda muhim mavzega ega bo`lgan davlat va madaniyat arboblari bilan ham tanishamiz. Asarda har bir yil voqealari alohida beriladi. Bu kabi qimmatli

ma'lumotlar va keltirilgan mulohazalarning hammasi tarix uchun muhimdir. Demak bundan ko`rinib turibdiki, «Boburnoma» XV asrning so`nggi XVI asrning birinchi choragida mazkur uch mintaqada kechgan voqealarni o`rganishda muhim manba hisoblanadi.

b) Bobur humronligi davri shaxarsozligini tahlil etishda «Boburnoma» birlamchi va birinchi darajali manba sifatida. Bobur o`zining asarida Movaraunnahrdagi shaharlarni tasvirlab o`tadi. Xassos rassom sifatida shahar tabiatining xilma-xil manzaralarini chizadi. Asarda Andijon, Marg`ilon, O`sh, Xo`jand, Qobul, G`azna, Hirot va boshqa shaharalar tasviri xuddi shunday manzaralar hisoblanadi. Asar Farg`ona viloyati va uning etti shahrini tasvirlash bilan boshlanib «Farg`ona viloyati 5 iqlimdandur. Ma'muraning kanorasida voqe' bo`lubdir. Sharqi Qoshqar, g`arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog`lar . . . Muhtasar viloyatdur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdiy tog` voqe bo`lubdur. G`arbi tarafidagi, Samarqand va Xo`jand bo`lg`ay tog` yo`qdur. Ushbu jonibdin o`zga hech jonibdin qish yog`i kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo`jand suyig`a mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o`tub, g`arb sori oqar, Xo`jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohrug`iyaha mashhurdur, o`tib yana shimolg`a mayil qilib Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyroq bu daryo tamom qumg`a singar, hech daryoga qotilmas.

Shaharlardan yana biri O`sh bo`lib, Andijonning sharqi janubiy tarafida joylashgan, havosi zo`r, oqar suvlari tiniqdir. Bahorda shahar yanada go`zallashadi. Andijonning g`arbidagi shahar Marg`ilon deb atalib, bu shahar haqida «Boburnoma» da quyidagi satrlar uchraydi: «Yana bir Marg`inondur, Andijondin etti yig`och yo`ldur. Yaxshi qasaba voqe bo`lubdur, pur ne'mat; anori va o`rugi asru ko`p xo`b bo`lur...

Marg`ilonning janubi g`arbiy qismidagi shahar Isfara bo`lib, bu shahar «Boburnomada» «Marg`ilon bilan Isfara orasida 9 yiqoch yo`ldur. Musmir daraxtisi bisyordir vale boqchalarida aksar bodom daraxtidir. Eli tamom sort va qo`hiydur» deb ta'riflanadi.

Qadimgi shaharlardan biri Xo`jand bo`lib «Boburnoma»da Xo`jand «Anori Xo`jand» deya ta'riflangan. Chunki bu shaharning mevalari mo`l bo`lib, ayniqsa anori juda mashhur bo`lgan. Qo`rg`oni baland erda joylashgan bo`lib, Sirdaryoning suvi shimol tarafdin oqadi. Shaharning shimol tarafdin tog` o`rab, u erda Firuza va yana boshqa konlar bor. U erdada ilon ko`pligi aytib o`tilgan. Ov qilinadigan hayvonlari va qushlari ko`p bo`lib, oq kiyik bug`ulari, moral qirg`ovul va tovushqon ko`p bo`ladi.

Sirdaryoning shimolida joylashgan shahar Ahsi bo`lib, kitoblarda Ahsikent deb yuritilgan ekan. Farg`ona viloyatida Andijondan keyingi o`rinda Ahsi shahri turadi.

«Boburnoma» da ta'riflangan shaharlardan yana biri Koson bo`lib, Ahsi shahrining shimolida joylashgan. Asarda «Kichikroq hasabadur. Nuchukkim Andijon suyi O`shdin kelur, Ahsi suyi Kosondin kelur. Yaxshi xavoliq erdur. Safoliq boqchalari bor. Vale safoliq boqchalari tamom soy yoqasida voqe bo`lgan uchun , «po`stini pesh berra » deb turlar. Safo va xavoda o`q bila Koson elining taassubi bor. Farg`ona viloyatining girdo-girdi tog`larida yaxshi yayloqlari bor. Tobulg`u yig`ochi bu tog`larda bor, o`zga hech erda bo`lmas. Undan aslo qilurlar, qamchi dastasi ham qilurlar, qushlarga qafas qilurlar, tarosh qilib turgaz qilurlar, heyli yaxshi yig`ochdir. Tabarukluk bila yiroq erlarga eltarlar»- deya ta'riflangan.

Asarda Temuriylar davrida poytaxt sanalgan Samarqand shaxri haqida juda ko`p ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, u shunday yozadi: «Rub'i maskunda Samarqandcha latif shaxr kamroqdur. Beshinchi iqlimdir shaxri Samarqantur, viloyatini Movarounnahr derlar. Xech yog`iy qax rva g`alaba bila munga dast topmag`on uchun baldai maxfuza derlar. Samarqand hazrati amirulmu'minin Usmon zamonida musulmon bo`lg`ondur.» Samarqandni Iskandar barpo qilganligini hamda mo`qul va turk ulusi bu shaxarni «Semirkand» deb ataganliklarini qayd etib o`tgan. Bobur asarida shaxarlarga o`zgacha ta'rif bergan, juda yaxshi tavsiflangan.

2-dars:

1. O`quvchilar o`y ishlarini dasr davomida o`z guruhlar bilan muhokama qiladilar va barcha ishtirokchilar fikrini inobatga olgan holda guruh nomidan yagona bayon yoziladi. Taqdimot uchun har bir guruhga 5 daqiqadan vaqt beriladi. – Bu vazifani bajarishga vaqt o`quvchilar yoshidan kelib chiqqan holda belgilanadi. O`quvchilarga ma'lumotlarni yozma ravishdan o`z daftarlariga yozib borishlari so`raladi.

2. O`quvchilarga o`qituvchi tomonidan tarixiy asoslangan ma'lumotlar beriladi. – Bobur shaxsi, Boburiylar davlati, Samarqand uchun bo`lgan kurashlar, Hindistonda Boburiylr hukumronligi...

Masalan:

«Boburnoma» memuarlar (estaliklar) to`plamidir. Bu tarixiy badiiy asar 1494-1529 yillardagi voqealarni, Movaraunnahr, Xuroson, Avg`oniston va Hindistonda ro`y bergan va ko`pida bevosita Boburning o`zi ishtirok etgan o`zaro feodal urushlarni o`z ichiga oladi. Bobur siyosiy faoliyatining daslabki yillaridan boshlab o`z sarguzashtlari turli xil tarixiy voqealarini xotira daftarini aks ettirib borgan va keyinchalik manna shu xotira daftari «Boburnoma» ni yaratishga asos bo`lib xizmat qilgan. Bobirning «Boburnoma» ni qachon yozishga kirishgani ma'lum emas. Biroq asarning ayrim o`rinlari uning ko`proq qismi Hindistonda yozilgani yoki qayta taxrir qilganini ko`rsatadi. Masalan, «Boburnoma» avtori 909 (1503-1504) yil Avg`oniston voqealari haqida so`zlar ekan Hindistnda Ibrohim Lo`diyni enganini ham gapiradi. Bu Boburning 909 yil voqealarini Hindistonda yozgani yoki avvalgi yozganlarini tahrir qilganini k`rsatadi. Bobir bu asarni umriniing oxirlarida, 1529-1530 yillarda tugatdi.

Boburnoma nafaqat Boburning o`z hayotini ochib bera oladigan, balki o`z o`limi yillariga qadar bo`lgan butun boburiylar sulolasi hayotini, ularnig hukmronligi davridagi aholi madaniy ma'rifiy hayoti, saroy boshqaruv tizimi, undgi ayollarning o`rni mavzeyi, farzand tarbiya qilish muammosi, shaharlarsozlik madaniyati va yana bir qancha masalalar yoritib berilgan. Bobur o`z memuarini yozishda iloji boricha o`quvchiga tushunarli bo`ladigan sodda, qisqa so`zlardan foydalanishga

haraakt qilgan. Bu kabi yo`nalishni biz Gulbadan begim ijodida ko`ra olamiz. Gulbadan begim qalamiga mansub “Xumoyunnoma” asari “Boburnoma”nnig davomi sifatida duyoga kelgan. Undagi soddalik, ma'lumotlarni yaxshi, aniq va ravon tushuntirib berilishi yuqorida aytganimizdek “Boburnma”da ham kuzatiladi. Uni o`rganish, “Humoyunoma”, “Akbarнома” kabi asarlar bilan solishtirib tahlil eta olish biznig oldimizda turgan ulkan vazifalardan biri hisoblanadi.

Har bir guruh a'zosi mustaqil ravishda o`rganilayotgan yozma manba uchun umumiy bo`lgan mavzudan kelib chiqqan holda boshqa o`quvchilar bayonidan, hamda o`qituvchi tomonidan manbani o`rganish uchun tuzilgan rejalardan foydalanib mustaqil ish yozishi so`raladi.

5. Mustaqil ishlar yig`ib olinib, o`qituvchi tomonidan tekshiriladi. O`qituvchi har bir mustaqil ishga o`z fikri hamda bahosini o`quvchilar oldida e'lon qilishi lozim. Chunki bu bir tomondan o`quvchilar uchun bir stimuly bo`lsa, boshqa tomondan ularda topshirilgan vazifaga nisbatan ma'suliyatni xis qilish xissini shakllantirishga yordam beradi.

III Bob. Geografiya fanidan ta'lim jarayoniga elektron o`quv vositalarni joriy etish.

3.1. Geografiya fanidan elektron o`quv metodik majmualar va ularni yaratishga bo`lgan talablar.

Zamonaviy o`quv-metodik majmualar o`quv-metodik materiallarining turli shakllari (elektron, qog`oz va h.k.) kompleksi bo`lib, ular har bir fanning kasbiy ta'lim dasturlariga mos keluvchi, auditoriya darslarining barcha turlari va mustaqil ta'limni tashkil etish b`yicha o`quv-metodik ta'minotdan foydalanish metodikasini o`zida mujassamlashtirgan bo`ladi. Hozirda zamonaviy didaktik materiallarga quyidagi talablar qo`yilmoqda:

- tuzilishining modulliligi;
- mazmunining to`laqlonligi;
- mantiqiy bayon etilganlik;
- o`quv materiallarini o`rganish bo`yicha yo`riqnomaga egaligi;
- nazorat topshiriqlarining mavjudligi;
- izohli lug`at va manbalar ro`yxati mavjudligi.

Tahlillar yuqoridagi talablarga elektron o`quv-metodik majmualar javob berishini ko`rsatdi. Elektron o`quv-metodik majmua zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o`qitishning didaktik, dasturiy va texnik interfaol majmuasidan tashkil topadi. Elektron o`quv-metodik majmualar an'anaviy majmualardan farqliroq, o`qitishning kompyuter va an'anaviy texnologiyalari birligi sifatida namoyon bo`ladi.

Axborot texnologiyalari muhitida o`qitishning muammoli usuli axborot-retseptiv va reproduktiv metodlari bilan birgalikda keng qo`llaniladi. Bu muhitda elektron o`quv-metodik majmualar o`quv mazmunini taqdim etish, o`quvchining bilish faoliyatini boshqarish va nazorat qilish vositalari sifatida ishlatiladi. Aynan bir o`quv materiali bir qancha vositalar bilan taqdim etilishi mumkin. Masalan, o`quv materiallari nashr, audio, video, CD-disklar ko`rinishida bo`lishi mumkin. O`qitishning har bir vositasi o`ziga xos didaktik imkoniyatlarga egadir. O`qituvchi

bunday imkoniyatlarni yaxshi bilishi va o`quv materiallarini bu vositalar bo`yicha taqsimlay olishi, hamda ulardan didaktik masalalarni echimiga bag`ishlangan o`quv axborotlarini eltish tizimi sifatidagi o`qish vositalarini shakllantirishi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida elektron o`quv-metodik majmuaning o`qitish vositalariga quyidagilar kiradi:

- o`quv darsliklari, qo`llanmalarining elektron versiyalari;
- kompyuter multimediali o`rgatuvchi tizimlar;
- audio o`quv-axborot materiallari;
- video o`quv-axborot materiallari;
- kompyuter laboratoriya ishlari;
- mashq qildirgichlar;
- ma'lumotlar va bilimlar bazasi;
- elektron kutubxonalar;
- ekspert o`rgatuvchi tizimlar asosidagi o`qitish vositalari;
- virtual haqiqiylik asosidagi o`qitish vositalari;

Ta'kidlash lozimki, o`qitishning elektron vositalari yangi axborot texnologiyalari vositalari orqali joriy etiladi. An'anaviy darsliklar, o`quv-metodik qo`llanmalar va boshqa nashr materiallarning elektron formatdagi nusxalari elektron o`quv-metodik majmualar yaratishda ishlatiladi.

Elektron didaktik materiallarni yaratishda dastlab quyidagilarga alohida e'tibor qaratmoq kerak:

- elektron o`quv qo`llanmalari mazmunan shunday tuzilgan bo`lish kerakki, ulardan qo`shimcha o`quv axborotlarini olish uchun o`quvchi aslo qiynalmasligi kerak;
- o`quv materiallarini tarkibiy tuzilmasini shakllantirishda modul tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi;
- mustaqil ta'limni tashkil etish va o`quv materiallarini o`rganish bo`yicha to`liq yo`riqnoma keltirilgan bo`lishi;

- nazorat topshiriqlari, o`z-o`zini tekshirish savollari va javoblari, mashq qildiruvchi topshiriqlarning bo`lishi.

Elektron shakldagi o`quv darsliklari eng oddiy holda nashr o`quv materiallarining elektron varianti ko`rinishida bo`ladi. Ammo elektron shakldagi darsliklar kompyuter xotirasida yoki boshqa tashqi magnit eltuvchida qulay saqlanish, tezkor o`zgartirish va elektron pochta orqali uzoq masofalarga uzatish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Elektron o`quv-metodik majmualar:

- tashkiliy-metodik
- axborot-o`rgatuvchi
- nazorat qiluvchi didaktik funksional bloklardan tashkil topadi.

Majmuaning pedagogik-psixologik vazifalari o`quv materiallarini gipermedia muhitida taqdim etish, o`quvchilar va o`qituvchilar orasidagi didaktik muloqot va o`qitish vositalari orqali amalga oshiriladi.

O`quv maqsadlaridagi dasturiy vositalar:

- ta'lim jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash;
- o`quv faoliyatini o`zi nazorat qilishi va to`g`ri yo`naltirishi;
- kompyuterning hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish tufayli o`quv vaqtini tejash;
- o`quv materiallarini vizuallashtirish;
- o`rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish va imitatsiyalashtirish;
- o`quvchilarni o`z-o`zlarini nazorat etishlari;
- har xil holatlarda optimal qaror qabul qilishni shakllantirish;
- fikrlashning aniq bir shakli (ko`rgazmali-obrazli, nazariy)ni rivojlantirish;
- o`qish motivlarini oshirish;
- bilish faoliyati madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'limga kompyuter multimedia kurslarini joriy etish orqali yangi ulkan imkoniyatlar yaratdi.

Bizning fikrimizcha, to`liq elektron o`quv-metodik majmua quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo`lishi kerak:

- yo`nalish (ixtisoslik)ning Davlat ta'lim standarti (DTS);
- DTSga mos yaratilgan namunaviy dastur asosida tayyorlangan, fanning maqsad va vazifalarini, fanning nazariy va amaliy bo`limlarining mazmunini, nazorat va kurs ishlarining mavzularini, masala va topshiriqlarni, yakuniy nazorat savollarini va fanning o`quv-metodik ta'minotini o`zida mujassamlashtirgan ishchi dastur;
- mustaqil ishlash uchun metodik ko`rsatmalarga ega fanni o`rganish bo`yicha yo`riqnoma;
- o`quv qo`llanmalar;
- nazariy bilimlarni qo`llash bo`yicha malaka va ko`nikmalarni shakllantiruvchi praktikum;
- nazariy va amaliy o`quv materiallarini o`zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yordam beruvchi testlar;
- fan bo`yicha jadvallar, formulalar jamlagan spravochnik;
- fan bo`yicha elektron kutubxona;

Amaliy tahlillar ta'lim jarayonida katta samaraga ega bo`lish uchun o`quv jarayonida interfaol didaktik o`yinlar va mashq qildirgichlardan foydalanishni taqozo etadi. Ular o`quvchilarning jamoa bo`lib yoki individual faoliyatini, kasbiy malaka va ko`nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Interfaol o`yinlar ma'lum bir kasbiy sifatlarga va malakaga ega bo`ljak o`qituvchi shaxsini shakllantirish maqsadida kelajakda kasbiy faoliyati bilan bog`liq vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatini beradi. Aynan didaktik o`yinlar va mashq qildirgichlarni yaratish elektron o`quv-metodik majmualar yaratishda katta qiyinchiliklar tug`diradi. Bu qiyinchilik dasturiy-texnik va metodik qiyinchiliklar bilan bog`liq.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo`ljallangan o`qitish vositasi bo`lib, undan mustaqil ta'lim olishda va o`quv materiallarini har tomonlama samarali o`zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o`quv materiallari o`quvchiga interfaol usullar

bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o`rinli foydalaniladi.

Elektron darsliklar quyidagi qismlardan iborat bo`lishi zarur:

1. O`rgatuvchi qism gipermatnga asoslangan va statik, dinamik rasmlardan iborat.
2. Mashq qildiruvchi xatolarni ko`rsatib beruvchi va to`g`ri xulosaga olib keluvchi qism.
3. Nazorat qiluvchi testlar orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi.

Axborotning elektron eltuvchisi – axborotni raqamli shaklda saqlash va uzatishning maxsus qurilmasi (disketlar, CD-disk va boshqalar).

Elektron darslik bo`limi – an'anaviy darslikning boblariga o`xshash o`quv fanining har xil sohasi.

Elektron darslik moduli – an'anaviy darslikning mavzulari yoki paragraflariga o`xshash, o`quv fanining bo`limlari tashkil etuvchisi.

Virtual ustaxonalar va laboratoriya stendlari – ustaxona jihozlari va laboratoriya stendlarining kompyuter-imitatsiya moduli.

Ko`rinib tauribdiki, elektron darsliklarning imkoniyatlari an'anaviy darsliklarga nisbatan ancha keng.

Elektron darsliklar quyidagi asosiy xossalari bilan ajralib turadi:

- ta'limni, o`quv mashg`ulotlarini yuqori sifatli darajada olib borilishini ta'minlashi;
- mustaqil ta'lim olish va egallangan bilimlarni mustaqil baholash imkoniyatining berilishi;
- ma'ruza va amaliy mashg`ulotlarning hamohangligi;
- axborot-ta'lim resurslarini rivojlantirish xususiyatining hamohangligi;
 - matn va boshqa axborot materiallarini maxsus navigatsiya (gipermatn) va illyustratsiya (multimedia vositalari, rasmlar, diagrammalar va jadvallar) bilan taqdim etishi.

Elektron darsliklar kompyuter texnologiyalari samaralaridan foydalanib eng muhim tushuncha va qonuniyatlarni tushunish va yodda saqlashni maksimal darajada engillashtiradi.

Elektron darsliklarning quyidagi ko`rinishlari mavjud:

1. Foydalanish maqsadlariga ko`ra: jamoa bo`lib va individual foydalaniladigan elektron darsliklar.

Jamoa bo`lib foydalaniladigan elektron darsliklar kompyuterning katta tizim resurslarini talab qilmaydigan bo`lishi kerak, chunki ular server kompyuterga joylashtiriladi, ulardan kompyuter tarmoqlari (Internet yoki Intranet) orqali foydalanish mumkin.

Individual foydalaniladigan elektron darsliklar o`quv materiallarini o`qituvchining ishtirokisiz o`rganishga mo`ljallangan.

Elektron darsliklarning bu ikki turidan auditoriya mashg`ulotlarida ham foydalanish mumkin.

2. O`quv materiallarini taqdim etish bo`yicha: tartibli va ixtiyoriy. Tartibli elektron darsliklar ma'lum bir bo`limga oid bo`lgan o`quv materiallarini o`zlashtirmasdan keyingi bo`limga o`tishga imkoniyat bermaydi.

3. O`quv materiallari va axborotlarni yangilash bo`yicha: uzluksiz va davriy yangilanuvchi. Uzluksiz ravishda yangilanadigan elektron darsliklar odatda elektron o`quv bazalariga (portallar, veb-saytlar va boshqalar) va elektron kutubxonalarga joylashtiriladi. Davriy yangilanadigan elektron darsliklar asosan elektron axborot eltuvchilar (disketa, CD-disk va boshqa) kabilar bilan taqdim etiladi.

Elektron darsliklar quyidagi tamoyillarga javob berishi kerak:

Kvantlash tamoyili: o`quv materiallarini mazmunan yopiq, minimal hajmga ega modullarga ajratish. Modullar bir necha bosqichdan iborat bo`ladi, ammo 4-5 va undan yuqori bosqichga ega elektron darsliklarning didaktik imkoniyatlari pasayadi.

To`laqonlilik tamoyili: o`quv materiallarining asosiy mazmunini qamrab olgan har bir modul o`zida quyidagilarni mujassamlashtirgan bo`lishi kerak:

- giper murojaatga ega kalit so`zlar;
- nazariy asos;
- nazariya bo`yicha nazorat savollari;

- namunalar;
- mustaqil echish uchun masalalar;
- modul bo`yicha nazorat savollari (javoblari bilan).

Birinchi bosqich modulida quyidagilar bo`lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- testlar;
- nazorat ishi;
- yordamchi ma'lumotnoma (Help);
- tahlillar.

3. Ko`rgazmalilik tamoyili: Elektron darsliklar modullari matn va vizuallashtirilgan materiallarning ma'lum nisbatini saqlagan holda illyustratsiyalar va kadrlar jamlanmasidan iborat b`ylishi zarur.

4. Erkin boshqarish tamoyili: o`quvchilar kompyuter ekranidagi kadrlar almashishini mustaqil boshqarishlari, zarur materiallarni istalgan miqdorda ekranga chiqarishlari va nazorat topshiriqlarini bajarish orqali bilimlarini mustaqil sinash imkoniyatlariga ega bo`lishlari kerak.

5. Moslashuvchanlik tamoyili: elektron darsliklar o`quv jarayonida ma'lum bir foydalanuvchining ehtiyojlariga moslanishni ta'minlashi, o`rganilayotgan materialning murakkabligini va chuqurligini, uning amaliy yo`naltirilganligini o`zgartirish, foydalanuvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib qo`shimcha illyustrativ materiallarni shakllantirish imkoniyatlarini ko`zda tutishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

6. Kompyuter qo`llash tamoyili: o`quv materiallarining mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadida o`quvchi istalgan vaqtda kompyuter qo`llash imkoniyatiga ega bo`lishi kerak. Bunday qo`llash kompyuter yordamida uzundan-uzun hisoblashlarni amalga oshirishda, turli grafiklar chizishda va olingan natijalarni istalgan bosqichda tekshirishda foydalidir.

Ayni paytda yangi axborot texnologiyalari sohasida gipermatn tizimlarini qo`llash keng quloqch yoymoqda. Bunday texnologiyalar asosida an'anaviy o`quv matnini yanada takomillashtirilgan o`quv materiali asosida kengaytirish va chuqurlashtirish, hamda kurslar va animatsion fragmentlardan foydalanish yo`li

bilan almashtirish qoyasi yotadi. Bunda u yoki bu holda ajratib berilgan matn fragmentlari orasida o`zaro bog`lanish tugunlari barpo etiladi.

Mutaxassislarning ta'rifiga ko`ra, gipermatn inson intellektining katta hajmdagi axborotni esda saqlash qobiliyatini va mazkur axborotlar ichidan kommunikatsiya (muloqot) va tafakkur jarayonlarini assotsiatsiyalash yo`li bilan qidiruv ishlarini olib borishni imitatsiya (o`zida aks) qiladi [42]. Boshqacha aytganda, gipermatn murakkab darajada tashkil etilgan o`quv materiallari tizimi bo`lib, ko`plab statistik va dinamik axborotlarni o`zida mujassamlashtiradi hamda umumlashgan tarmoq strukturasi ega bo`ladi. Bunda axborot fragmentlari rolini matn, grafik, sxema, videofragment, ijrochi dastur va animatsiya (harakatli jarayon)lar o`ynaydi.

Insoniyatning XXI asrga qadami uning barcha faoliyatlaridagi globallashuv bosqichiga to`g`ri keldi. Globallashuv jarayoni, insonlarni hozirgi zamon texnikasi rivojlangan hamda yangi texnologiyalar tufayli axborotning yagona muhitida faoliyat ko`rsatishi lozimligini uqtirmoqda.

Ayni globallashuv davrida har bir ta'lim muassasasi, birinchi navbatda, o`qituvchi kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi va sifatli pedagogik kadrlarni tayyorlashda to`g`ri yo`llarni tanlashlari juda muhimdir.

Bu masalada mutaxassislardan I.K.Shalaev va A.A.Veryaevlar [45] ta'limning an'anaviy muhitidan uning fazoviy muhitiga o`tish bo`yicha juda to`g`ri mulohaza yuritganlar. Ular o`z tadqiqotlarida «... Sivilizatsiyaning shakllanish bosqichiga murojaat qilib, erishilgan tajribalar asosan mahalliy (muhit va vaqt bo`yicha) yo`l bilan keyingi avlodga uzatilganini payqash mumkin. Bu xususan, o`sha davr uchun xarakterli bo`lgan madaniy taraqqiyotning sabablaridan bo`lgan. Ta'limiy muhit u paytda o`ta tabiiyligi bilan ajralgan. Sekin-asta zaruriyat yuzasidan insonlar, bunday ta'limiy muhitni maxsus shakllantirish uchun harakat qilganlar. Til va yozuvning shakllanishi bilan inson tajribasi turli vositalarda qayd qilinib uni tarqatish imkoni tug`ilgan. Inson tajribasini muhitning boshqa bir joyida (yaratilgan joyidan boshqa) va boshqa bir vaqtda sinab ko`rish tug`ilgan. Axborotni saqlash va uni uzatish bo`yicha insoniyatda imkoniyatlarning paydo

bo`lishi, ijtimoiy rivojlanishlar sur'atining o`shishiga va shu bilan bir vaqtda, ta'lim muhitining shakllanishiga olib keldi» - deb yozadilar.

Darvoqe, bugun XXI asrda ta'lim vositalari bo`yicha juda katta o`zgarishlar yuz berdi. Ta'limning an'anaviy modelidagi «o`qitish vositalari» tushunchasidan insoniyat pedagogik amaliyot faoliyatida «ta'limiy muhit» tushunchasiga, keyinroq esa «ta'limiy baza» va nihoyat axborot – kommunikatsiya jarayonlarining rivojlanish davrida joriy qilinadigan «yagona axborot ta'limi bazasi» tushunchasiga o`tilmoqda [25].

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining dunyo miqyosida rivojlanishi, inson turmushining turli jihatlarida, jumladan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ta'lim jabhalarida bir-birlariga bog`liqliklarining keskin namoyon bo`lishiga olib keldi. Hozirgi zamon axborot va kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlari, global internet tarmoqining paydo bo`lishi va insoniyatning ko`p qirrali faoliyatiga kirib borishi munosabati bilan yanada keskin ortib ketdi.

XXI asrda, ta'limda ro`y berayotgan universallik, shuningdek, turli regionlar va o`quv muassasalarida kechayotgan ta'limning globallasuvi va rivojlanishi bilan global Internet tarmoqining keskin rivojlanishi imkoniyatlaridan foydalanish ochiq ta'lim tizimini vujudga keltirmoqda.

V.I.Strajev [40] fikriga qo`shilib, zamonaviy va an'anaviy, individual va universal hamda mahalliy va jahon ta'lim tizimini uyg`unlashtirish asosida zamonaviy ta'lim shakllanmoqda, deb hisoblaymiz. V.I.Strajev qayd qilgan bugungi ta'limning muhim muammolaridan bo`lgan an'anaviy ta'lim tizimida va texnologiyasida keskin o`zgarishlarni qilish va axborot jamiyati sharoitiga mos bo`lgan ta'limning yangi sifat tizimini yaratish lozimligini barcha anglashi zarur. Boshqa bir yirik mutaxassis N.V.Makarova [32] bu fikrni qo`llab, ta'lim tizimi shu paytga qadar insonning madaniy va intellektual rivojlanish darajasiga qaratilgan bo`lsa, endi u mehnat bozoridan loyiq ish topishi, moddiy ehtiyojini ta'minlashi uchun asos sanaladi va u ta'lim tizimining tezkorligini va mehnat bozori talablariga qarab yo`nalish olishiga qaratilmoqi lozim deb uqtiradi.

Hozirgi zamon o`qituvchisi, o`z fani bo`yicha mutaxassisligidan tashqari fanni o`qitayotganda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining barcha afzalliklaridan bimalol foydalana oladigan, o`quvchi va talabalarda bu texnologiyalarni amalda ishonch bilan qo`llash malakasini shakllantirish qobiliyatiga ega bo`lishi zarur.

1996 yilda Moskvada bo`lib o`tgan YuNESKOning «Ta'lim va informatika» deb nom olgan II Xalqaro kongressida Rossiya Federatsiyasi olimlarining «Ta'limda yangicha siyosat va axborot texnologiyalari» mavzusidagi suhbatlari qizg`in munozaralar asosida bo`lib o`tdi. Unda zamonaviy ilmiy ta'limni, ta'limning yangi paradigmasini amalga oshirishdagi eng muhim vositalardan biridir deb to`g`ri baholandi. Hozirga qadar ta'limda hukm surgan tor doirali mutaxassislarni tayyorlash maqsadini ko`zlagan mazkur paradigma o`rniga fundamental fanlararo keng bilimga ega bo`lgan kadrlarni tayyorlash maqsad qilib olindi.

Ta'limni axborotlashtirishning bosh maqsadi, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini qo`llash asosida, inson faoliyatini global miqyosda ixchamlashtirish va jamiyat talablariga munosib yangi dunyoviy tafakkurga ega bo`lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashning sifati va samaradorligini keskin ko`tarishdan iboratdir.

Axborot texnologiyalari ta'lim muassasalarida bilim olayotgan yoshlarni shakllantirish bo`yicha yangicha yondashishlar asosida, ularning bilim, malaka va ko`nikmalarini aniqlash bilan bog`liq o`quv jarayonini tashkil etib, ta'limni ana shunday yangi sifat bosqichiga ko`tarish imkonini berishi bilan muhim.

O`rta maxsus ta'limning o`quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish orqali talabalarga axborotning noan'anaviy manbalariga yo`l ochib, mustaqil ta'lim olishning samaradorligini ta'minlashi bilan birga, ijodiy faoliyat ko`rsatish uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi. Bu jihatlar yuqori axborot texnologiyalari bo`yicha o`quv jarayonini tashkil etish va o`quvchilarning bilim darajasini nazorat qilish uchun maxsus texnologiyalarni yaratishni taqozo etadi.

Ayni paytda metodik adabiyotlarda, ta'lim texnologiyalarini joriy etish b`yicha uchta o`zaro aloqada bo`lgan soha mavjudligi, ularning birinchisi auditoriya

mashg`ulotlari, ikkinchisi elektron kutubxonalar, nihoyat, uchinchisi, Internet tizimidan foydalanish ekanligi ko`rsatiladi [46, 33].

Ta'lim muassasalarida yagona axborot tizimini tashkil etish, o`quv muassasasini kompyuter vositalari bilan keng ta'minlashni, shuningdek, uni boshqarishni va o`quv jarayonini dasturiy texnik vositalar bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

Ta'limni axborotlashtirish, birinchi navbatda quyidagilarni nazarda tutadi:

- kompyuter texnikasi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarning zamonaviy vositalarini tizimli o`rganish, tashkil etish va foydalanishni;
- talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o`quv va metodik ta'minlashni;
- o`qituvchilar tomonidan zaruriy o`quv-metodik ta'minotni yaratish bo`yicha ishlarni;
- axborot texnologiyalarini samarali qo`llanilishidan vujudga kelayotgan yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda o`quv jarayonini takomillashtirishni taqozo etadi.

Axborotlashtirishning yagona tizimi o`z oldiga ta'limning keng doiradagi hamda mutaxassislikka doir yaratilgan dasturini o`zlashtirish orqali mustahkam fundamental bilimga ega bo`lgan va ularni o`z faoliyatida qo`llay oladigan kadrlar tayyorlash maqsadini qo`yadi.

Pedagogik ta'limning yagona axborotlashtirish muhitini yaratishni quyidagi asosiy tamoyillar asosida tashkil etish nazarda tutiladi:

1. O`rta maxsus ta'lim uchun yaratilgan davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishi.
2. Ta'lim oluvchilar uchun mavjud barcha ta'limiy resurslar, o`qituvchilar, o`quv jarayonini ta'minlovchi vositalar haqidagi axborotlarning ochiqligi. Buning uchun zaruriy ta'limiy axborot muhitini tashkil etishda, ularda joylashgan barcha axborot resurslari Respublikadagi barcha oliy pedagogika ta'lim muassasalari uchun ochiq bo`lishiga erishishi.
3. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi ta'lim jarayoni ayrim bosqichlarining hajmi va mazmunini tanlash va uning moslashuvchanligi, mazkur

tamoyillarni o`quv rejasi va dasturlari asosida amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi.

4. O`qish joyi, o`qitish shakli, muddati va texnologiyasini, jumladan kompyuter texnologiyasini qo`llash asosida uzohdagi axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi. Shuningdek, o`qitishda an'anaviy texnologiyani va zamonaviy o`qitish texnologiyalari bilan uyg`unlashtirish sharoitining mavjudligi.

5. Talabalar o`quv predmetlarini tizimlash asosida, o`qitish texnologiyalarini metodik jihatdan ishlab chiqish va erishilgan natijalarni tahlilini o`tkazishga tayyorgarligini ta'minlashi.

6. Ta'lim jarayoni qatnashchilarining ta'lim muassasasi yoki uyda samarali mustaqil ishlashlarini tashkil etish uchun tegishli sharoitlarning yaratilishi.

7. Kompyuter tarmoqidan foydalanish orqali talabalar bilan individual va guruhli konsultatsiyalarni tashkil etish mumkinligi.

8. Kompyuter tarmog`iga joylashtirish uchun shakllantirilgan va fayllar ko`rinishida saqlanadigan o`quv-metodik majmua (O`MM) lar orqali talabalar mustaqil faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun asosiy vosita sifatida qo`llanilishini nazarda tutadi.

Yuqorida sanab o`tilgan va yagona axborot muhitini tashkil etishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga qaratilgan texnik, dasturiy va metodik vositalar mazkur muhitni ta'minlash, ya'ni o`quv-metodik majmuani, ta'limning axborotlashtirilgan yagona muhitini yaratish sohasida muhim hisoblanadi.

O`quv-metodik majmua (O`MM)ning ob'ekti, ma'lum o`quv predmetini o`qitish bo`yicha ilmiy asoslangan holatlarning barcha majmuasini, qonunlar, algoritmlar va texnologik yondashuvlarni, shuningdek, fizik ob'ektlar (laboratoriya mashg`ulotlari, seminar va amaliy mashg`ulotlar) ning mazmunini o`z ichiga oladi. Talabalarning ishlari majmuada keltirilgan o`quv resurslari, o`qituvchilar (tyuterlar) va boshqa hamkasb talabalar bilan muloqotlari kompyuter yordamida, telekommunikatsiya vositalari asosida amalga oshiriladi.

O`quv-metodik majmua (O`MM) vositalari va ta'limning axborot-kommunikatsiya muhiti quyidagi asosiy funktsiyalarni va talablarni bajarishni o`z bo`yniga olmoq`i lozim:

- talabalarni va ularning axborot muhitidan foydalanish faoliyatlarini qayd etish;
- o`qituvchi kadrlar tomonidan talabalarning faoliyatini masla`at yo`li bilan qo`llab-quvvatlashni hisobga olish;
- talabalarga zaruriy o`quv materiallarini musta`il y`zlashtirish uchun tavsiya qilish;
- o`quv jarayonida, talabalar tomonidan o`zlashtirilgan bilim, o`quv va malakalarning test yordamida, shuningdek, og`zaki va yozma usuldagi nazoratini tashkil qilish;
- o`quv-metodik majmua (O`MM) bazasida talabalarga tavsiya qilingan o`quv materiallaridan, qo`shimcha adabiyot va boshqa vositalardan foydalanishi uchun o`quv muassasasi axborot resurslaridan uzoq masofadan turib foydalanish imkonini yaratish;
- virtual laboratoriya mashg`ulotlari va shaxsiy amaliy topshiriqlarni bajarishda masofadan turib kafedra o`qituvchilarining maslahati va boshqa yordamlarini uyushtirish.

Bu talablarni joriy qilish, ta'limiy axborot muhitini yaratishni va o`quv fani bo`yicha o`quv-metodik majmua (O`MM) ni shakllanganlik darajalariga ko`ra, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beradi.

Birinchi bosqichda o`quv dasturlari, ma'ruzalarning matnlari, nazorat uchun mo`ljallangan savollar; fanning to`la hajmi yuzasidan yakuniy nazorat topshiriqlari; majburiy laboratoriya mashg`ulotlarining ro`yxati; ularning bayoni va ular bo`yicha nazorat savollari; o`quv fani bo`yicha kurs loyig`alari, ularning hisob-kitobini va shaxsiy topshiriqlarini bajarish bo`yicha metodik tavsiyanomalar joy oladi.

Ikkinchi bosqichda o`quv materiallariga bog`liq bo`lgan ayrim qismlarning elektron ko`rinishlarini joriy qilishni taqozo qiladi.

Uchinchi bosqichda butun o`quv fanlari bo`yicha o`quv-metodik majmua yaratilib, uni o`qitishning masofali yoki aralash-an'anaviy va zamonaviy texnologiyalar bo`yicha o`zlashtirishning imkoniyatlari ta'minlanadi.

To`rtinchi bosqichda talabaning bilish faoliyatiga mos boshqarishning elementlarini, hamda o`quv jarayonining yakuni bo`yicha talaba faoliyatining kafolatlangan darajasi ta'minotini o`z ichiga olgan darslikning multimedia versiyasi yaratiladi.

Ta'limning yagona axborot-kommunikatsiya muhitidan (YaAKM) foydalanish A.V. Mogilyov [33], E.S.Polat, M.Yu.Buxarkina, M.V.Moiseeva, A.S. Petrovlar [34] tomonidan taklif etilgan tavsiyalarda etarlicha bayon qilingan. Ular ta'limda internet tizimidan foydalanishda talabalar uchun ta'limning umumiy muammosi, maqsadi, muammoni echishga qaratilgan o`zaro uyg`unlashtirilgan metodlar va tamoyillar asosida, kompyuter-telekommunikatsiya texnologiyalari asosida tayyorlangan bo`lib, ko`p afzalliklarga ega.

Biroq bularga qo`shimcha qilib, axborot-kompyuter texnologiyalarining interaktivlikka asoslanganini e'tiborga olgan holda, uning faoliyatini quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq bo`ladi:

- o`qituvchi bilan muloqotda internet tizimini qo`llash (talaba savollar bilan murojaat qiladi, javoblar oladi, masofadan turib savol-javob va topshiriqlar bo`yicha test va nazorat ishlarini topshiradi);

- ta'lim oluvchi, boshqa yoshlar, hamkurslari bilan muloqotda bo`ladi (bajarilgan ishlari bo`yicha fikr almashadi va h.k.).

Yagona axborot-kommunikatsiya muhitining(YaAKM) bunday faoliyati, o`quv jarayoni bo`yicha talabalarning hozirjavob bo`lishiga, o`quv guruhi qiziqishini belgilashga, har bir talabaga individual yondashishga imkon berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot-kommunikatsiya muhitining mazmuni, o`qish jarayoniga o`quv materiallarini taqdim etish yangi metodlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ochadi va o`quv jarayoni ishtirokchilari uchun bilish faoliyatini erkinligini ta'minlaydi.

Yagona axborot-kommunikatsiya muhiti(YaAKM)ning mazmuni ta'limning vaqt o'tishi bilan quyidagi o'zgarishlariga ko'ra uning yangi mazmunini shakllantiradi:

- ta'limning shakl va metodlarini tashkil etishda, pedagogik tajriba almashishning metodlari va shakllarini, shuningdek, pedagogik kadrlar malakasini oshirish metodlarini shakllantirishi;

- o'qituvchi va talabalar orasidagi, metodistlar va pedagogik jarayonning qatnashchilari orasidagi o'zaro munosabatlarning shakl va metodlarining o'zgarishi;

- o'qitishning vaqti va joyini inobatga olgan holda o'qituvchilar va talabalar echishi lozim bo'lgan alohida o'quv topshiriqlarining mazmunini tavsiya qilishi.

Yagona axborot-kommunikatsiya muhitidagi (YaAKM) faoliyatini yuqorida eslatilgan maqsadlarga muvofiq hamda uning mazmunini vaqt o'tishi bilan takomillashtira borish tendentsiyasi asosida tashkil etish, talabalarni quyidagi yo'nalishlarda muhim va zaruriy qobiliyatlarining shakllanishiga olib keladi:

- o'zlari uchun foydalanish zarur bo'lgan vositalarni mustaqil o'zlashtirishga va mustaqil o'qishga tayyor turishi;

- bunday zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni ular aynan egallaganliklarini anglagan holda, ixtiyoriy paytda, bu bilimlar bo'yicha hamkasblar bilan o'rtoqlashishga tayyorgarlik ko'rishi;

- o'z hamkasblari bilan ma'lum masalalarda fikr almasha olishi;

- jamoa holda faoliyat ko'rsatayotganda vujudga kelgan muammolarni yaxshi tushunishi;

- etarlicha murakkab jarayon va tizimlarning tuzilishi va mohiyatini birlari bilan fikr almashish asosida aniqlashtirishi;

- turli shakldagi axborotlarni (jadvallar, grafiklar, internet, hisobot va video materiallarni) yig'ishi va tavsiya etishi;

- kelajakda ta'limni davom ettirish ishtiyoqi, uning murakkab va istiqbolli sohalarida ishlashga tayyor bo'lishi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning yangi yagona axborot-kommunikatsiya muhiti (YaAKM) tizimidagi faoliyati, olingan axborotlarni eslab qolish bilangina

chegaralanmay, o`qitishda fan mazmunini tushunish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Talabanning yagona axborot-kommunikatsiya muhiti tizimidagi (YaAKM) faoliyatida ijobiy siljishlar, pedagogik monitoring yordamida ta'minlanishi lozim. Shu tufayli monitoring, qayta bog`lanish bo`yicha axborotlarning tahlili va yangi voqeyiliklar jarayonining sintezi sifatida, yagona axborot-kommunikatsiya muhiti YaAKM tuzilmasining texnologik tashkil etuvchisi bo`lib xizmat qilishi bilan muhim sanaladi. Bunday monitoring ta'limda o`rgatishni, tahlilni, bu sohada bashorat qilishni va loyihalashtirishlarni ham o`z ichiga oladi.

3.2. Geografiya fanlarini o`qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish bo`yicha metodik tavsiyalar

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalari va kompyuter kommunikatsiya vositalarining jadal qo`llanishi hozirgi davr talablaridan biridir. Bugungi mustqil demokratlashtirilgan darslarda axborot texnologiyalarini joriy etishning o`ziga xos yo`llari bir qator o`quv qo`llanmalarda xususan Respublikamizning bir qator qonunlari, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ham o`z aksini topgan.

Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida” gi Farmonida ayniqsa, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o`quv yurtlarining ta'lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga hamda ularni faol qo`llanilishiga asoslangan ilohat ta'lim tizimlarini kiritish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida ahamiyat berilishi belgilab berilgan.

O`quvchilarga mavzuni tushuntirishda axborot vositalardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning eng katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Chunki dars o`tishda texnik elektron vositalar yordamida ko`rgazmali qurollar – slaydlardan foydalanish o`qituvchini dars o`tishdagi vaqtini tejash bilan birgalikda o`quvchilarga mavzu mohiyati va ruhiyatini etkazish, singdirishda, ularga o`tilayotgan mavzuni yanada oydinroq ifoda etishga yordam beradi.

Bunday dars uchun o`qituvchi Power Point dasturi imkoniyatlarini yaxshi bilishi va kompyuter texnologiyalariga asoslangan bilmilariga tayanishi mumkin. O`quvchilarga tayyorlangan taqdimotda asosan mavzu bo`yicha asosiy tushuncha va iboralar, kalit so`zlar, qisqa jadvallar, sxema va ko`rgazmali rasmlar taqdim etilishi mumkin. Taqdimot uchun ekran 45 gradus burchakda o`rnatilsa o`qituvchi markazda turib o`quvchilarga mavzu bo`yicha taqdimotni ilova qilish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Power Point taqdimotini tuzish jarayoni bir qancha harakatlarda amalga oshiriladi va bunda quyidagilarga e'tibor qaratilishi kerak:

taqdimotni umumiy bezalishini mavzu hamda o`quvchilar yoshiga mosligi;

- slaydlarning umumiy o`lchamlarini tanlash;
- slaydlarni bezashda zarur bo`lgan o`zgarishlardan foydalanish;
- slaydlarni ko`rsatishda tovushli va harakatdagi animatsiyalarni yaratish;

Ayniqsa hozirgi davrda rivojlanib borayotgan kompyuter texnologiyasi bizga oz vaqt ichida o`quvchilar uchun ham qiziq, ham tushunarli bo`lgan jadvallar hamda "harakatdagi" (o`zgarib turuvchi predmetlar tasviri tushirilgan) slaydlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish imkonini berdi.

Quyida Al-Xorazmiyning "Kitob surat al-arz" hamda tabiatni o`rganishda Klavdiy Ptolemeyning "Geografiya" asarining geografik ahamiyat mavzusiga ishlab chiqilgan elektron harakatdagi slaydlar taqdim etiladi.

Al-Xorazmiyning "Kitob surat al-arz" asaridan "geografik nomlar" hamda "geografik kartalar" mavzusini o`qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish.

Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей

редактирования.	редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.

“Geografiya darslarida Bobirning “Bobirnoma” asrning o`qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.

Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.
Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.	Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.

XULOSA.

Insoniyatning XXI asrga qadami uning barcha faoliyatlaridagi globallashuv bosqichiga to'g'ri keldi. Globallashuv jarayoni, insonlarni ozirgi zamon texnikasi rivojlangan hamda yangi texnologiyalar tufayli axborotning yagona muhitida faoliyat k'rsatishi lozimligini uqtirmoqda.

Ayni globallashuv davrida har bir ta'lim muassasasi, birinchi navbatda, o'qituvchi kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi va sifatli pedagogik kadrlarni tayyorlashda to'g'ri yo'llarni tanlashlari juda muhimdir.

Ta'lim jarayonining samaradorligi har qanday ta'lim muassasi o'qituvchisining yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy va amaliy asoslarini qay darajada egallaganligi bilan belgilanadi.

Mavjud ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va kadrlar tayyorlash milliy dasturini zamonaviy ilmiy tafakkur yutuqlariga, ijtimoiy tajribaga asoslangan holda, uzluksiz ta'lim tizimini barcha shakldagi ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ta'minlovchi ilg'or ilmiy-metodik texnologiya sifatida amalga oshirish bugunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir".

Geografiya fani o'qitiladigan umumta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida geografiya fanini o'qitish o'qituvchidan yuqori geografik hamda pedagogik bilimni talab etadi. Ushbu darslarda o'qituvchi geografiyani fan sifatida o'tish bilan bir qatorda, o'quvchilarga mavzu yuzasidan mustaqil fikrlay olish, har qanday geografik hodisani to'g'ri va ilmiy asosda taxlil qilish, mavzuga doir kartalar, jadvallar, qolaversa bo'lajak geograf uchun juda muxim hisoblanadigan jixat qo'shimcha yozma manbalardan foydalanish salohiyatini shakllantira olishi ham kerak.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek "Ilm maskanlarida faqatgina fikr erkinligi, chinakam ijod va izlanish hukmron bo'lmog'i lozim". Bu esa o'qituvchidan ulkan matonat va tinmay o'z ustida ishlashni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qayotimizga jadal kirib kelayotgan bir vaqtda geografiya darslarini manbalar yordamida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'quvchilarda geografik asarlar bilan mustaqil ishlay olish ko'nikmasini shakllantirish ularni erkin fikrlash, har bir hodisa yuzasidan o'zining mustaqil fikrini bildira olish, geografik hodisalarni xolisona ilmiy taxlil etish xususiyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

Talabning mustaqil ta'lim olish rolini oshirish, yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi va qo'shimcha ta'lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim ulushining ortishi yangi ta'lim resurslaridan foydalanishni taqozo etadi.

Elektron taqdimotlardan darsga namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni engillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham tarqatish mumkin.

Slaydlarga nisbatan o'quvchilar o'zlarining fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga ega bo'ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o'zining o'quv-bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday metodika o'qituvchiga yangi axborotlarni ko'paytirib borish, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini o'zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo'ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

Metodik jihatdan o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqoti ikki turdagi ta'sirdan iborat bo'ladi. Birinchi tur ta'siri: o'qitishning ma'lum bosqichida o'quvchiga shu

bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo`naltiruvchi savollar. Ikkinchisi: masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usulini ko`rsatish.

Savollar va ko`rsatmalar soni nazariy va amaliy materiallarning o`quvchi tomonidan o`zlashtirilishi hamda malakaning shakllanishiga bog`liq ravishda beriladi.

Amaliy tahlillar ta'lim jarayonida katta samaraga ega bo`lish uchun o`quv jarayonida interfaol didaktik o`yinlar va mashq qildirgichlardan foydalanishni taqozo etadi. Ular o`quvchilarning jamoa bo`lib yoki individual faoliyatini, kasbiy malaka va ko`nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Interfaol o`yinlar ma'lum bir kasbiy sifatlarga va malakaga ega bo`lajak o`qituvchi shaxsini shakllantirish maqsadida kelajakda kasbiy faoliyati bilan bog`liq vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatini beradi. Aynan didaktik o`yinlar va mashq qildirgichlarni yaratish elektron o`quv-metodik majmualar yaratishda katta qiyinchiliklar tug`diradi. Bu qiyinchilik dasturiy-texnik va metodik qiyinchiliklar bilan bog`liq.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo`ljallangan o`qitish vositasi bo`lib, undan mustaqil ta'lim olishda va o`quv materiallarini har tomonlama samarali o`zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o`quv materiallari o`quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o`rinli foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T. "O'zbekiston" 1995 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: hafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., –1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. "O'zbekiston" 1999 yil.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kap'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni. 2002 yil 30 may.
6. Abdug'aniev I. Geografiya darslarda ta'limning texnika vositalaridan foydalanish T., «O'qituvchi», 2005 yil.
7. Abduqosimov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, T., «O'qituvchi», 1998 yil.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T., – 2006 yil.
9. Asanov G., Nabixonov M., Safarov, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi T. "O'zbekiston" 1997 yil.
10. Babanskiy. Hozirgi zamon ta'limi maktablarida o'qitish metodlari T. "O'qituvchi" 1990 yil.
11. Ziyomuhamedov B Abdullayeva Sh Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –Toshkent 2000
12. Eshmuhammedov Ta'limda innovatsion texnologiyalar Toshkent 2008
13. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar T. "O'qituvchi" 1990 yil.
14. Musaev P. O'zbekiston geografiyasini o'qitish T. "O'qituvchi" 1979 yil
15. Musaev P. va boshqalar. Geografiya- materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi,6 sinf darsligi., T., «O'qituvchi», 1996 yil.
16. Musaev R. va Musaev J.O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi T., «Sharq», 2006 yil.

17. Saotov A., Abduqosimov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, T., «O`qituvchi», 2005 yil.
18. Rafiqov V. Qiziqarli geografiya, T., «Sharq», 2012 yil.
19. Usmonov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari asoslari.,T., 2007 yil.
20. Qurboniyozov R. O`zbekiston geografiyasi T. “O`qituvchi” 1997 yil.
21. Qayumov A. va boshqalar Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi T., «O`zbekiston», 2006 yil.
22. O`zbekiston milliy intsiiklopediyasi T. 1999 yil.
23. O`zbekiston milliy intsiiklopediyasi T. 2005 yil.
24. Maktabda geografiya-ma`naviy-ma`rifiy, ta`limiy jurnal, 10-son, 2010 yil.
25. Geografik atlaslar 5-6-7-8-9 sinflar.
26. Maktabda geografiya- ma`naviy-ma`rifiy, ta`limiy jurnal, Toshkent, 2012-2013 yil sonlari.

Elektron ta`lim resurslari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz